



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2023-yil
23-fevral
payshanba

№ 8 (4598)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

«TOURIST POLICE» – ISHONCHLI HIMOYA

Bugun Surxondaryo viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyohlarning xavfsizligini ta'minlash borasida viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari samarali faoliyat olib borishmoqda. Turizm namoyishi obyektlarida o'rnatilgan to'rtta «Tourist police» ko'chma ma'lumotlar markazi sayyohlarga doimiy ravishda xizmat qilishda asqatyapti. Xodimlarning chet tillarini bilish darajasi ham yuqori. Qolaversa, viloyatdagi mavjud obyektlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishgani sayohatchilar uchun ayni muddao bo'layotir. Sayyohlarning kelib-ketishi va yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmaning yo'l harakati xavfsizligi guruhi xodimlari tomonidan tashkil etilmoqda.

3



«KOBAN» FAOLIYATIDA TEZKORLIK MUHIM

Yaqinda bir guruh ichki ishlar organlari xodimlari Yaponiya politsiyasi bilan o'zaro tajriba almashish maqsadida ushbu mamlakatda bo'ldi. Delegatsiya tarkibida mazkur yurtda bo'lib, jinoyatchilik bilan kurashish borasida olib borilayotgan ishlar, politsiyaning ish yuritish tizimi bilan yaqindan tanishdik. O'ziga xos madaniyat, urf-odatlariga ega kunchiqar yurt bizda katta taassurot qoldirdi.

7





Uchinchi sektorda

Farg'ona shahar 3-sektori hududida 18 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud. Ushbu mahalla fuqarolar yig'inlarida 70 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Hudud-da 14 ta umumta'lim maktabi, 2 ta litsey, 3 ta kollej, 18 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti va 6 ta sog'liqni saqlash muassasasi joylashgan.

– Aholining kam ta'minlangan qatlamiga yordam berishning eng samarali usuli ularni ish bilan band qilishdir, – deydi shahar IIOFMB boshlig'i, sektor rahbari, podpolkovnik Anvarjon Mirzayev. – Shu maqsadda «Temir daftar», «Yoshlar daftari» hamda «Ayollar daftari»ga kiritilgan fuqarolarga manzilli yordam ko'rsatib, ularni muqim daromadli ishga yo'naltirishga ko'maklashyapmiz.

Sektor boshlig'ining ta'kidlashicha, o'tgan yili «Yoshlar daftari»ga kiritilgan 394 na-

far yigit-qizning barchasiga «Yoshlar daftari» jamg'armasi hisobidan amaliy yordam berildi. Xususan, 84 nafariga asbob-uskuna va mehnat qurollari xarid qilishi uchun subsidiya ajratildi, 142 nafariga kontrakt pullari to'landi, 26 nafar yigitga safarbarlik chaqiruv rezervi xizmati uchun, 15 nafariga haydovchilik kurslarida o'qishi uchun to'lanadigan pullar qoplab berildi.

«Ayollar daftari»ga kiritilgan 178 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi, 59 nafariga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishi uchun amaliy yordam ko'rsatildi. I va II guruh nogironligi bo'lgan 423 nafar xotin-qizga 1 million 200 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam puli tarqatildi. 11 nafar ehtiyojmand ayollar uy-joy bilan ta'minlandi.

Mahallalarda 108 marta sayyor qabul o'tkazilib, fuqarolardan

tushgan 540 ta murojaatdan 507 tasi joyida hal qilindi. Murojaatlarga asosan «Yormozor», «Ipak», «Sharshara», «Soybo'yi», «Ibrat» mahallalarida elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash maqsadida 393 ta beton ustun o'rnatilib, 3045 metr kabel tortildi, 5 ta yangi transformator o'rnatildi.

«Mahallabay» va «xonadonbay» o'rganishlar muntazam olib borilayotgani ham xalqning roziligiga sabab bo'lyapti. Yaqinda «Soybo'yi» mahalla fuqarolar yig'inida yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarni o'z vaqtida o'rganish, qiynalgan aholiga manzilli yordam ko'rsatish bo'yicha ish olib borildi. Shu kuni sektor rahbari mahalla fuqarolar yig'inida sayyor qabul ham o'tkazdi. Qabul davomida 12 nafar fuqarodan murojaat qabul qilinib, 5 tasi joyida yechim topdi.

Abduvosit SIDIQOV,
«Postda» muxbiri.

Farg'ona viloyati.



Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori

YUTUQLAR ORTIDA MASHAQQATLI MEHNAT BOR



Litseyimiz o'quvchilariga qo'yilayotgan talab yuqori. Bilimda, sportda faol bo'lishning o'zi yetarli emas, yoshlarimiz vatanparvar, mard va jasur bo'lib voyaga yetishlari shart. Buning uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Ta'lim muassasasi o'quv xonalari zamonaviy talablarga javob beradigan darajada jihozlangan. Salkam 13 ming kitob fondiga ega bo'lgan Axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, 2 ta kompyuter sinfi, fizika va kimyo laboratoriya xonalari, sport zali, yotoqxona o'quvchilar ixtiyorida.

Litseyda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmat yo'nalishlari bo'yicha 9 ta maxsus xona tashkil etilgani o'quvchilarning bu yo'nalishdagi bilim va malakasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, faxriylar, viloyat

ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining tajribali xodimlari bilan yuzma-yuz muloqotlar ham besamar ketmayotir.

Litseyimizda faoliyat olib borayotgan 30 nafar pedagogning 2 nafari fan nomzodi. Ular tomonidan 20 dan ortiq respublika va xalqaro miqyosdagi nashrlarda ilmiy maqolalar chop qilingan. Litsey direktori, mayor Ilhomjon Burxonov boshchiligidagi har bir o'qituvchining dars mashg'ulotini kuzatish, tajriba almashish, «Ustoz-shogird» an'anasiga tayangan holda yosh pedagoglarga amaliy ko'mak berish ish unumdorligini oshirmoqda.

Ta'lim dargohimizda 363 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Shahzoda Qodiraliyeva qo'l jangi bo'yicha jahon chempioni bo'lgan bo'lsa, Muazzam Arabboyeva qit'a chempionatida zafar quchgan. Shu bilan birga, 11 nafar o'quv-

chimiz ingliz tilini bilish bo'yicha V2 sertifikatiga ega ekani kishini faxrlantiradi. Yanada e'tiborlisi shuki, o'tgan o'quv yilida bitiruvchilarimizning 46 nafari IIV Akademiyasiga, 3 nafari Rossiya IIV Akademiyasiga, 8 nafari xorijiy oliy ta'lim muassasalariga va 208 nafari mamlakatimizdagi turli oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishga muvaffaq bo'ldi. Bunday muvaffaqiyatlarga erishishda pedagoglarimizdan Nargiza Hojimirzayeva, Madina Soliyeva, Muyassar Qo'shinova, Xurshida Kamolova, Shahriyor G'ulomjonov, Halima Tursunova, G'ulomjon G'oyibboyev, Nasiba Muhiddinova, Shuhratjon Abdullayev, G'ayratjon Xolmatov, Saida Murodova, Hasan Ibragimovlarning hissasi katta.

Toshmamat DAVLATOV,
IIV Namangan akademik litseyi kurs rahbari,
iste'fodagi podpolkovnik.



BO'ZATOV TUMANI

2019-yilning avgust oyida Prezidentimiz Qoraqalpog'iston Respublikasiga qilgan safari davomida Bo'zatov tumanini tashkil etish tashabbusi bilan chiqqan edi. Bu tashabbus respublika, ayniqsa, ilgari e'tibordan chetda qolgan ushbu hudud aholisini g'oyat xushnud etdi.

Ko'p o'tmay, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining qarori bilan Kegeyli tumani tarkibidagi «Bo'zatov» shaharcha fuqarolar yig'ini, «Qusqanatov», «Yerkindarya»,

«Aspantay» ovul fuqarolar yig'inlari hamda Chimboy tumani tarkibidagi «Ko'k-suv» ovul fuqarolar yig'ini hududlari birlashtirilib, Bo'zatov tumani qayta tuzildi. Hozirda tumanda 21 mingdan ziyod

aholi istiqomat qilib kelmoqda.

O'tgan yillar davomida hududni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Albatta, rivojla-

nishning asosiy mezonlaridan biri tinchlik-osoyshtalik hisoblanadi. Ana shu hayotiy talabdan kelib chiqqan holda, tuman hududida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlar «mahallabay», «xonadonbay» tamoyillariga asosan yo'lga qo'yilgan.

Tuman IIBning davlat organlari hamda jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorlikdagi ishlari natijasida 2022-yilda tumanda jinoyatchilik keskin kamayishiga erishildi. Bundan tashqari, jinoyatlarni aniqlash va ularning barvaqt oldini olish yuzasidan «Xavfsiz hudud», «Xavfsiz tun» kabi profilaktik tadbirlar ham muntazam o'tkazib kelinmoqdaki, bu

sa'y-harakatlar ham o'z natijasini bermay qolmayotir.

Tuman IIBga qarashli 3-sektorga «Ko'k-suv» ovul fuqarolar yig'ini birlashtirilgan bo'lib, hududda 3970 nafar fuqaro istiqomat qiladi. O'tgan yili sektor hududidagi 18 ta kam ta'minlangan oilaga «Mehr harakati» doirasida ko'mir, oziq-ovqat, kiyim-kechaklar berildi. «Ayollar daftari»da turgan 10 nafar ayolga subsidiya hisobidan zamonaviy tikuv mashinalari ajratilgan bo'lsa, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan 73 nafar yoshga turli moddiy yordamlar ko'rsatildi.

O'ktam RAMANOV,
Bo'zatov tuman IIB
boshlig'ining MMIB
o'rinbosari,
katta leytenant.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



БУЛАКБАШИНСКИЙ РАЙОН

Во время командировки в Булакбашинский район заместитель начальника РОВД – начальник службы общественной безопасности подполковник Хусниддин Ахмедов предложил написать о территориальном инспекторе профилактики старшем лейтенанте Дониёрбеке Мирзаеве, несущем службу в махалле Тошкечик.

Булакбашинский район на протяжении 20 километров граничит с Араванским районом Ошской области Республики Кыргызстан. В 37 махаллях проживают более 147 тысяч человек. В районе функционируют 29 фермерских хозяйств, пять совместных предприятий по выпуску трикотажных изделий, два современно оборудованных тепличных хозяйства, ряд предприятий, занимающихся добычей камня, 35 школ и два колледжа. В рамках концепции «Безопасная территория» на улицах, в махаллях, общественных местах и на базарах установлено более 700 камер наружного наблюдения.

Старшего лейтенанта Дониёрбека Мирзаева застать в рабочем кабинете не удалось.

– Инспектор на территории, – кратко объяснила председатель МСГ «Тошкечик» Нодирахон Долимова. – Вы ему позвоните.

Уже через несколько минут Д. Мирзаев докладывал заместителю начальника Булакбашинского РОВД, что обстановка на участке стабильная, правонарушения и преступления за текущие сутки не зафиксированы.

Беседа продолжилась в его рабочем кабинете.



– В Тошкечике проживают немногим более трех тысяч человек. Население занимается сельским хозяйством и предпринимательством. В 2022-м и с начала текущего года не было зафиксировано ни одного преступления. В махалле установлено 35 камер наружного наблюдения. Люди стали понимать, что от зоркого «глаза» ничего не скроешь, – рассказывает Дониёрбек. – Особую роль в поддержании мира и спокойствия играет прими-

рительная комиссия. Не остаются без внимания дети и подростки. Встречи со школьниками и учащимися колледжей проводятся каждую неделю. Часто разговор идет о выборе профессии. Многие подростки мечтают служить в армии и подразделениях органов внутренних дел, задают интересные их вопросы. Не забываем напоминать несовершеннолетним о вредном влиянии табака, алкоголя, наркотиков. Призываем не

попадать под влияние лидеров незаконных течений.

Прием граждан имеет большое значение. Жалобы и заявления показывают слабые места, помогают усилить профилактику.

Инспектор Д. Мирзаев – выпускник Андижанского машиностроительного института – в 2020 году был принят в ряды ОВД и назначен инспектором профилактики Булакбашинского РОВД. Его наставник – старший инспектор профилактики подполковник Мансурбек Холманов щедро делился с героем очерка знаниями и опытом.

– Мы осознаем, что от уровня профессионализма напрямую зависят спокойствие и безопасность граждан. Стремимся добросовестно выполнять возложенные на нас обязанности, – делится старший лейтенант Д. Мирзаев.

– В первые дни знакомства с махаллей Д. Мирзаев предложил наладить ночные дежурства махаллинских активистов, составил график, наметил наиболее «беспокойные» маршруты. Это стало приносить плоды, – говорит подполковник Хусниддин Ахмедов.

Махаллинцы уважают своего инспектора профилактики, а он прилагает все усилия к тому, чтобы на вверенной территории царили мир и стабильный порядок.

Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент «На посту».
Фото автора.

Андижанская область.



В центре внимания — качественное образование

«МНЕ НРАВИТСЯ ПЕРЕДАВАТЬ ЗНАНИЯ»

— делится преподаватель по специальным предметам подполковник в отставке **Вохиджон Хужамов**

Подполковник в отставке Вохиджон Хужамов почти 20 лет отслужил в органах внутренних дел. С 2019 года преподает учащимся Навоийского академического лицея МВД Республики Узбекистан.

Герой повествования родился в Нуратинском районе Навоийской области. С детства проявлял любознательность.

— Мама сказала отцу: «Сын задает так много вопросов и не успокаивается, пока не получит на них ответ. Кажется, он будет следователем». Она оказалась права, я стал следователем. Мои дяди и тети тоже работали в этой сфере. Выйдя на заслуженный отдых, я не бросил службу. Просто изменилось направление деятельности — теперь я преподаю в академическом лицее МВД, — рассказал ветеран.

Подполковник в отставке преподает уголовное и административное право на русском и узбекском языках. Он хорошо освещает каждую тему, иллюстрируя ее



фактами из служебной деятельности, юридически обосновывает предоставляемую информацию. Учащиеся с нетерпением ждут

эти предметы. В конце квартала с целью ознакомления с деятельностью различных отраслевых служб для будущих сотрудников

ОВД организуются поездки в УВД области.

— Делюсь с учащимися секретами профессии, рассказываю об условиях, созданных для сотрудников органов внутренних дел. Считаю, что долгом юношей и девушек является служение народу, поддержание мира и спокойствия в стране. У молодых людей, окончивших наш лицей на «отлично» и желающих идти дальше по этой стезе, обязательно будет возможность получить дополнительные знания в Академии МВД, — заключил Вохиджон Хужамов.

Подполковник в отставке В. Хужамов разработал для лицеистов четыре вида учебных пособий по специальным предметам.

Герой очерка в данный момент участвует в конкурсе «Самый образцовый учитель» в категории «специальные предметы».

Махлиё ХОЛОВА,
корреспондент «Postda».
Навоийская область.

■ Самаркандская область

НАЙТИ ПОДХОД К КАЖДОМУ



На территории Пастдаргомского района находится колония-поселение № 37 третьего регионального координационного центра при Департаменте исполнения наказания МВД республики.

— Каждую субботу провожу прием осужденных, чтобы узнать о проблемах, просьбах и пожеланиях, — говорит начальник ко-

лонии подполковник Илёс Абдукадоров. — Бывает, что просят собрать документы на условно-досрочное освобождение. Здешний контин-

гент сильно отличается от того, который содержится в обычных исправительных колониях. На работу они ходят каждый день. Кстати, о работе. У нас есть 400 гектаров земли, и многие трудятся там. Имеется собственная ферма, где разводят крупный рогатый скот и кроликов. Кроме того, мы заключили договора с десятью предприятиями,

Большинству и в голову не придет нарушить правила, потому что они хотят домой, а о последствиях побега и увеличении сроков знают.



Открыта библиотека, укомплектованная различной литературой: классика, современные авторы, учебники. Кстати, многие осуж-

денные учатся. В прошлом году пятеро учились в вузе, в этом году двое подали документы для поступления в университет.

Труд, безусловно, является ключевым инструментом исправления. Но к этому обязательно добавляются воспитательные и образовательные — культурно-массовые и спортивные мероприятия.

Мы направляем в нужное русло деятельность наших подопечных, чтобы они понимали, что правильно, а что нет. Это помогает людям, совершившим преступление, осознать, что они натворили, понять, что так больше делать нельзя.

Замира БАЛТАЕВА,
корреспондент
«На посту».
Фото автора.



на которых трудятся наши подопечные. К примеру, в городе есть швейное предприятие ООО «Динамо», там работают более 30 женщин. Есть договора с заводами по производству кирпича и с масложиркомбинатом. При трудоустройстве учитываются образование, возраст, состояние здоровья. На работу осужденные подбираются под конвоем. Случаев побега с начала года не было.

В колонии-поселении можно реально заработать и чаще видеть родственников. Есть комнаты для краткосрочных и длительных свиданий сроком до трех суток. Режимные требования такие же, как и в обычной исправительной колонии. Тем не менее, осужденные носят свою одежду, сами ее стирают, гладят — для этого у них есть все необходимое.





Фахрийлар — фахримиз

«ХАЛҚҚА НАФИМ ТЕГСА ДЕЙМАН...»

— Ҳаётимнинг аксарият қисмини ҳарбийликда ўтказганимдан ҳеч афсусланмайман, — дейди истеъфодаги подполковник Виталий Фёдоров. — Аксинча, киндик қоним томган она Ватаним тинчлик-осойишталиги йўлида хизмат қилиб, жонажон халқимнинг дуосини олганимдан миннатдорман. Эр йигитга бундан ортиқ бахт бўлмаса керак...

Кўринишидан ҳамон забардаст бу инсон ИИБ Қоровул қўшинларига қарашли ҳарбий қисмларда турли раҳбарлик лавозимларида фаолият кўрсатиб, мамлакатимиз Қуролли Кучлари ривожига муносиб ҳисса қўшди. Кўплаб шогирдлар тарбиялаб, уларга касб сирларини мукамал ўргатди.

— Касбимда қандай ютуқни қўлга киритган бўлсам, буларнинг барчасида устозимнинг хизматини ҳис қилиб тураман, — дейди ИИБ Қоровул қўшинларига қарашли Тошкент шаҳридаги 7531-ҳарбий қисм командирининг биринчи ўринбосари — штаб бошлиғи, подполковник Марат Аҳметов. — Ҳозирда ҳам соҳага оид бирор масалада иккилансам, албатта, Виталий акадан маслаҳат сўраб тураман.

Салкам чорак аср мобайнида юртимиз ҳимояси йўлида сидқидилдан хизмат қилган лавҳамиз қаҳрамони ИИБ Марказий базасини қўриқлаш

батальони командирининг биринчи ўринбосари — штаб бошлиғи лавозимидан иззат-икром билан пенсияга кузатилади.

Навоий вилоятининг Зарафшон шаҳрида туғилган В. Фёдоров ёшлигидан ўзбек тилида гапиришга одатланди. Чунки, унинг ён-атрофидаги деярли барча ўзбек тилида сўзлашар, Виталий Владимирович ҳам шу тилда гаплашишга ҳаракат қиларди. Муҳит тезда ўз таъсирини кўрсатди. Ҳозирда унинг оиласидагилар ҳам ўзбек тилида қийналмай мулоқот қилишади.

— Биз Ўзбекистонда туғилиб, шу заминда улғайдик, унинг нону тузини еб, ҳаётда ўз ўрнимизни топдик, — дейди фахр билан у. — Шундай экан, киндик қонимиз томган юрtnинг она тилига ҳурмат-эҳтиром билан муносабатда бўлиш бизнинг инсонийлик бурчимиздир.



Истеъфодаги подполковник Виталий Фёдоров ҳозиргача шогирдлари ва тизимдаги ёш ҳарбийларга ўзининг бой тажрибасини ўргатиб келяпти.

Меҳнатдан обрў топган тиниб-тинчимас бу инсон ҳозирда ҳам пойтахтимиздаги хусусий корхоналарнинг бирида ишчи-хизматчиларнинг хавфсизлигини таъминлаш бўйича бўлим бошлиғи лавозимида фаолият юритиб, жамиятимиз таракқиёти йўлида фидойилик кўрсатиб келмоқда.

Оиласини жонидан азиз кўради-

ган лавҳамиз қаҳрамони турмуш ўртоғи Светлана билан икки ўғилни тарбиялаб, вояга етказяпти. Уларнинг Ватан ва халқ учун, фидойи инсонлар бўлиб камол топиши учун бор куч-ғайрати ва шижоатини аямай келмоқда.

Михли САФАРОВ,
«Postda» мухбири.



Соҳа фидойилари

ТАЛАБА ҚИЗЛАРНИНГ ИШОНЧЛИ ВАКИЛИ

Болалиги сўлим Фарғонада ўтган Марҳабо Турсунова 2009 йилда ИИБ Академиясини тугатиб, хизмат фаолиятини Фарғона тумани ИИБ Тергов бўлимида бошлади. Турмуш ўртоғи ҳарбий хизматчи бўлгани боис 2010 йилда тақдир тақозосига кўра хизматини Жиззах вилоятида давом эттирди. Оила, фарзандлар ташвиши унинг хизматдаги масъулиятини асло камайтирмади. Аксинча, тергов соҳасида анчайин билим ва тажриба орттирди.



Айни пайтда Навоий шаҳар ИИБ ЖХХ ҚПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори лавозимида фаолият кўрсатяпти. У Навоий давлат кончилиги ва технологиялар университетида иш олиб бормоқда. Подполковник Марҳабо Турсунованинг асосий вазифаси ушбу олий таълим муассасасида таҳсил олаётган талаба қизларнинг муаммоларини ўрганиш, ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, шунингдек, уларга моддий-ижтимоий ва руҳий ёрдам беришни ташкил этишдан иборат.

Мазкур билим масканида қарийб 1600 нафар талаба қизлар таълим олади. Улардан 130 нафари ижарада, 70 нафари ётоқхонада, кўпчилиги қариндошларининг хонадонида яшайди. Қаҳрамонимиз янги лавозимда қисқа вақт ичида самарали ишларни амалга оширишга улғурди. Ижарадаги ва ётоқхонадаги қизлар билан яқиндан танишиб, 10 нафардан ортигига ёрдам берди.

Қаҳрамонимиз университетда талаба қизлар



ўртасида самимий муҳитни яратишга катта ҳисса қўшди. Шу мақсадда «Энг пазанда қиз», «Зукко қизлар» кўрик-танловларини ташкил этиш борасида ташаббус кўрсатди. Шунингдек, спортнинг турли йўналишлари бўйича мусобақалар уюштирмоқда.

Мухтасар қилиб айтганда, ички ишлар органлари соҳасида узоқ йиллик бой тажрибага эга подполковник Марҳабо Турсунова Навоий давлат кончилиги ва

технологиялар университети талаба қизларининг ишончли вакиласига айланган. Боиси, ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш баробарида уларни ўз қизи каби кўриб, маслаҳату тавсияларини аямайди. Катта ҳаёт оstonасида турган қизлар ўртасида эса оила-турмуш масалалари борасида тушунтириш ишлари олиб боради.

Махлиё ХОЛОВА,
«Postda» мухбири.

Навоий вилояти.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

Ишчи гуруҳ фаолиятдан

МУАММОЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА ҲАЛ ЭТИШ – ДИҚҚАТ МАРКАЗИДА

Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобожонов бошчилигидаги идоралараро ишчи гуруҳ аҳоли муаммоларига эътибор қаратиш ҳамда криминоген вазият барқарорлигини таъминлаш юзасидан Тошкент вилоятида ўрганиш ишларини олиб бормоқда.

Ўрганишларда асосий эътибор аҳолининг коммунал, ижтимоий-иқтисодий, таълим ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш соҳаларидаги муаммоларини аниқлаш ҳамда бартараф этиш, йўлларда инсон ҳафсизлиги учун муносиб шароитларни яратиш масалаларига қаратилмоқда. Жумладан, таълим муассасаларидаги шароит ва мактабларда ўқувчиларни хунарга ўргатиш ишларини баҳолаш мақсадида Зангиота туманидаги Ойбек номидаги маҳалла ҳудудида жойлашган 14-сонли умумий ўрта таълим мактаби фаолияти билан танишилди.

Таълим маскани 400 нафар ўқувчи учун мўлжалланган бўлиб, унда дурадгорлик, сартарошлик, тикувчилик, мусиқа санъати, Ахборот технологияларига ихтисослашган ўқув синфлари фаолият юритмоқда.

Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва улар ўртасида низоли вазиятлар ке-



либ чиқишининг олдини олиш бўйича мактаб қошида иш олиб боровчи инспектор-психолог ходимнинг фаолияти билан ҳам танишилди. Ёшларни таълимга йўналтириш, уларнинг баркамол бўлиб улғайишига қаратилган дастурлар ижроси таъминланиши юзасидан тегишли чора-тадбирлар амалга оширилиши лозимлиги қайд этилди.

Шунингдек, Ички ишлар вазири томонидан ҳудудда ҳафсиз муҳитни яратиш, жиноятчиликни

«маҳаллабай» жиловлаш дастурларининг ижроси борасида маҳаллада шакллантирилган бешликнинг ҳамкорлик масалаларига жиддий эътибор қаратилиб, аниқланган камчиликларни бартараф этиш бўйича тегишли топшириқлар берилди.

Ишчи гуруҳ ташаббуси билан маҳаллада яшовчи 1 нафар фуқаро учун 8 млн сўмлик субсидия, 3 нафари учун 52 млн сўмлик кредит маблағларини ажратиш, 62

нафар фуқарони тадбиркорлик субъектларида ишга жойлаштириш, 70 нафарини ўзини ўзи банд қилиш орқали иш билан таъминлаш ҳамда 35 нафар муҳтож фуқарога тиббий ёрдам кўрсатиш режалаштирилди. 10 нафар фуқаронинг узоқ вақтдан бери ҳал бўлмаётган муаммоларига ечим топилди.

Вазир Пўлат Бобожоновнинг таклифига биноан жорий йилнинг март ва апрель ойларида Зангиота тумани бўйича ўрта умумтаълим муассасалари ўқувчилари ҳамда алоҳида аёл педагоглар ўртасида волейбол мусобақаларини ташкил этиш бўйича чоралар белгиланди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Халқ устаси, академик Сирожиддин Раҳматиллаевнинг ёғоч ўймакорлиги бўйича «Устоз-шогирд» мактаби фаолияти билан яқиндан танишилиб, юқори баҳо берилди.

Бундан ташқари, ишчи гуруҳ томонидан маҳаллаларда ҳафсиз муҳитни яратиш, жиноятчиликни жиловлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасида Зангиота тумани ИИБ ҳамда Янгийўл шаҳри «Янгифаровон» даҳасидаги ҳуқуқ-тартибот маскани фаолияти билан танишилди.

Ўрганишлар жараёнида аниқланган камчиликларни бартараф этиш ҳамда соҳа раҳбарларининг иш фаолиятини такомиллаштириш юзасидан аниқ вазифалар белгиланди.

ИИБ Ахборот хизмати.

Лучшие в своем деле

ПУТЬ К СОВЕРШЕНСТВУ

Капитан Эльёр Исломов родился в 1993 году в городе Янгийере. В 2013 году поступил в Академию МВД Республики Узбекистан и в 2017 году успешно окончил ее. Был назначен оперуполномоченным группы уголовного розыска ОВД № 8 Хавастского района Сырдарьинской области.

В рабочий ритм Эльёр Исломов вошел быстро. Присущими ему бдительностью и широким кругозором он завоевал доверие коллег. Благодаря ответственности и неустойчивости, ему удалось за короткий срок раскрыть более десяти преступлений. Служба оперуполномоченного дала герою очерка важный жизненный и профессиональный опыт.

Увлеченного сотрудника вскоре заметило руководство. В 2019 году Эльёр Исломов был назначен на должность инспектора, затем старшего инспектора группы по работе с обращениями организационного отделения ОВД Хавастского района. Скрупулезный Эльёр старался вникать во все мелочи.

В целях эффективного выполнения возложенных на него задач герой очерка добился проведения более двадцати выездных приемов с участием руководителя третьего сектора. Способствовал положитель-

ному разрешению более половины поступивших обращений. Постоянно находясь среди жителей, знал их проблемы, реально помогал в самых разных ситуациях. Так он ежедневно раскрывался как профессионал. Было понятно, что Эльёру Исломову пора подниматься на новую ступень.

Перспективного сотрудника в 2020 году назначили на должность старшего инспектора группы по работе с молодежью отдела нравственно-воспитательной работы и социальной защиты службы духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения УВД Сырдарьинской области. Премудрости кадровой службы он освоил быстро. При его непосредственном участии осуществляется эффективная деятельность по повышению профессионального, духовного уровня сотрудников. Капитан Э. Исломов активно привлекает молодежь к чтению, пропагандирует

спорт и здоровый образ жизни. С его участием в райотделах были организованы конкурсы чтецов и книжные ярмарки. Регулярными стали встречи молодежи с ветеранами сферы, самоотверженными сотрудниками. Чаше стали проводиться турниры по мини-футболу, настольному теннису, легкой атлетике. Конкурсы «Мы – спортивная семья» и «Папа, мама и я – семья книголюб» приобрели еще большую популярность. Эльёр Исломов гордится тем, что знатоки УВД Сырдарьинской области заняли 1-е место в республиканском конкурсе «Заковат», а команда учащихся Сырдарьинского академического лицея МВД Узбекистана одержала победу в республиканском этапе конкурса «Молодежь и право». Руководство областного УВД ценит профессионализм и органи-



заторские способности капитана Э. Исломова.

– Во все времена важными для сотрудников органов внутренних дел являлись высокие моральные качества. Необходимость проявления тактичности, доброжелательности, а при необходимости и требовательности, сопровождают нас на всех этапах службы. С первых дней меня окружали профессионалы. Спасибо им. Работа с такими людьми – всегда путь к совершенству.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.



«KOBAN»

FAOLIYATIDA
TEZKORLIK MUHIM

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Yaponiya politsiyasining asosiy vazifalariga shaxslarning hayoti va mol-mulkini himoya qilish, jinoyatning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan tergov qilish, gumon qilinuvchilarni ushlab, yo'l harakati xavfsizligini va jamoat tartibini saqlash kiradi. Xuddi shu politsiya tashkiloti prinsipi Yaponiyaning 47 prefekturasida ham mavjud bo'lib, jamoat xavfsizligi komissiyasi prefektura politsiyasi boshlig'ini tasdiqlovchi gubernatorga bo'ysunadi. Milliy politsiya agentligi alohida prefekturalarning politsiya bo'linmalariga bo'ysunadigan 7 ta politsiya okrugi (mintaqaviy politsiya byurosi) bo'limlari faoliyatini boshqaradi.

Prefektura politsiyasini shtab boshlig'i boshqaradi, uning tarkibida bir nechta politsiya bo'limlari mavjud bo'lib, ular, o'z navbatida, «Koban» shahar

ko'rsatish joylari – tumanlarni qamrab oladi. Ularning asosiy farqi xizmat ko'rsatish hududidir.

«Koban» odatda atigi 0,35 kvadrat kilometrda xizmat ko'rsatish maydoni uchun javobgardir, ammo aholi zichligi yuqori bo'lganligi sababli, mamlakatda bu hududda 8500 ga yaqin aholi istiqomat qilishi mumkin. 10–15 ta «Koban» va «Tyuzaisho»larning faoliyati bitta politsiya bo'limi tomonidan nazorat qilinadi. Hozirgi kunda Yaponiyada 6200 ta «Koban» politsiya bo'linmalari jamoat tartibini saqlash bo'yicha faoliyat ko'rsatmoqda. «Koban»lar smenali tizimda ishlaydi. Butun mamlakat bo'ylab 3 smenali tizim joriy etilgan.

«Koban»da bir kunda 3 nafar ofitser, kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan hududlarda 5 nafargacha ofitserlar xizmat ko'rsatadi. Ularda ichki ishlar organlariga qo'ng'iroq «110» qisqa raqami



«Koban» xizmat xonasi kichkina 4 ta xonadan iborat, 1-xona telefon qo'ng'iroqlarini qabul qilish xonasi, 2-xona ovqatlanish xonasi, 3-xona fuqarolar bilan suhbat o'tkazish va ofitserlar ish hujjatlari bilan shug'ullanish xonasi, 4-xona xodimlarning dam olish xonacidan iborat.

«Tyuzaisho»da ayollar ishlaydimi?

Qishloq joylarda «Tyuzaisho» 29 dan 40 kvadrat kilometrgacha bo'lgan hududga xizmat qiladi. Uning aholisi 3000 ga yaqin bo'ladi. Har 10–15 stendning faoliyati bitta politsiya bo'limi tomonidan nazorat qilinadi. Yaponiyada 6600 ta «Tyuzaisho» politsiya



bo'linmalari jamoat tartibini saqlash bo'yicha faoliyat ko'rsatmoqda. Kobanlardan ikki baravar ko'p bo'lgan «Tyuzaisho»lar faqat qishloq joylarida uchraydi. Oddiy «Tyuzaisho» – bu kichik uy bo'lib, u yerda politsiya xodimi oilasi bilan yashaydi. Unga politsiya ishlarini olib borish uchun ofis birlashtirilgan. Politsiya xodimi qishloq joylarida tartibni saqlash uchun javobgar etib belgilangan. Birlashtirilgan xizmat xonasi xizmat uyi bilan yonma-yon qurilgan. «Tyuzaisho»da ayollar xizmat olib bormaydi. «Tyuzaisho»da 1 nafar ofitser, kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan hududlarda 2 nafargacha ofitserlar xizmat ko'rsatadi.



politsiya stendlari va «Tyuzaisho» qishloq politsiya stendlaridan iborat. Mazkur tarkibiy bo'linmalarda yapon politsiyasining qariyb 40 foizi xizmat qiladi, barcha jinoyatlarning taxminan 60–65 foizi ular tomonidan ko'rib chiqiladi. Politsiya xodimlari to'qqiz darajaga bo'lingan. Xususan, Bosh nazoratchi, katta komissar, komissar, komissar yordamchisi, boshliq, Bosh inspektor, inspektor, serjant va politsiya xodimiga bo'linadi.

Bugungi kunda «Koban» mini politsiya bo'limi bo'lib, bu uchdan besh nafargacha politsiyachilar o'z ishlarini bajaradigan joy hisoblanadi. Har bir «Koban» va «Tyuzaisho» politsiya bo'limining filiali sifatida ishlaydi va shunga mos ravishda ma'lum xizmat

orqali murojaat qilinadi. Fuqarolar «110» ga qo'ng'iroq qilsa, tuman ichki ishlar organlariga xabar kelib tushadi, tuman IIB joylardagi hududiga qarab «Koban» va «Tyuzaisho»ga xabarni yetkazadi. Tuman ichki ishlar organlaridagi tergov-tezkor guruhi yetib kelgunga qadar «Koban» yoki «Tyuzaisho» mas'ul ofitseri aniq belgilangan vaqtda voqea joyiga yetib borib turadi. «Koban» ofitserlari vazifasi faqat chaqiruvga tezkorlik bilan yetib borish, u yerda jamoat tartibini saqlash, hududni aylanib profilaktika qilishdan iborat. Xizmat avtotransporti, ratsiya, zamonaviy barcha bazalar o'rnatilgan telefon, alqotester, pistolet, jinoyatchilarni ushlaydigan temir tutqich, qo'lkishanlari bilan ta'minlangan.

O'qitish va malaka oshirish

Yaponiyada politsiya xodimlarini o'qitish va malaka oshirish uchun 3 ta oliygoh mavjud. Milliy politsiya Akademiyasi katta politsiyachilarni o'qitish va tadqiqotlar olib borishga mo'ljallangan. Oliyog'ohning 9 ta o'quv bo'limi mavjud bo'lib, shu jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarni tergov qilish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash borasida bo'limlari mavjud. Milliy politsiya ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati asosan sud ekspertizasi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish, kriminologiya yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlaydi.

Imperial Guard shtab oliygohi asosan imperator oila a'zolarini hamda imperator inshootlarining xavfsizligini ta'minlash uchun mutaxassislar tayyorlaydi.

Mavjud 47 ta prefektura o'z akademiyasiga ega. Politsiya tizimida 3-4 yillik o'qitiladigan mutaxassislik bo'yicha akademiyalar mavjud emas. Ularda 1 oydan 6 oygacha xodimlar o'qitiladi.

Sharof O'ROLOV,
Sirdaryo viloyati IIB HPB boshlig'i,
polkovnik.





Оила — муқаддас

ЯХШИЛИКДАН ЯХШИСИ ЙЎК

Жиззах шаҳрининг «Зилол» маҳалласида яшовчи онахон қизи уч боласи билан эрининг уйдан қайтиб келганини билдириб ёрдам сўраган. Ҳолат ўрганилганида қизи тушкунликка тушиб, ҳатто ичкиликбозликка ружу қўйгани аён бўлди.



Қисқаси, онахон қизини Зарбдор тумани Бўстон шаҳарчасида яшовчи йигит-

га турмушга берган. Кўёв ичкиликка мойил бўлгани боис рафиқасини ҳам ичиш-

га ундаган ва бориб-бориб ана шу иллат ортидан оила инқирозга юз тутган. Жанжал кўпайиб, аёл қизлик уйига қайтиб келгач ҳам зарарли одатини қўймаган. Аҳволни ўнглаш учун ишга психологга жалб қилдик. Сўнг аёл 18 кун наркология диспансерида даволанди. Психологик ёрдам тиббий муассасада ҳам давом эттирилди. Кейин аёлни ип йигирув корхонасига ишга жойлашишига ёрдам бердик.

Бу орада эркакнинг турмуш ўртоғини оналик ҳуқуқидан маҳрум қилиш тўғрисидаги аризаси асосида суд бошланди. Ҳар икки томон ҳам фарзандларини ўзи билан олиб қолиш тарадду-дида эди. Ўз навбатида, биз оилани сақлаб қолиш мум-

кинлигини, бунга кафил бўлишимизни баён этиб, суддан томонлар ўйлаб олиши учун вақт сўрадик. Эр-хотин ва уларнинг яқинлари билан ўтказган мулоқотларимиз натижасида оила ажрими олди олинди. Айни вақтда аёлнинг фарзандларига нафақа тайинлаш устида иш олиб бораёмиз.

Хуллас, бир оилани ажримдан, уч нафар норасидани ота ёки онасиз улғайишдан сақлаб қолишдек хайрли ишга ҳисса қўшганимиздан хурсандмиз.

Бу каби тадбирлар вилоят ИИБ ХБП хотин-қизлар масалалари бўйича бўлими ходимлари томонидан мунтазам амалга оширилмоқда. Жумладан, 2022 йил ва жорий йилнинг ўтган даврида профилактика инспектор-

лари билан ҳамкорликда 3109 нафар хотин-қизга ҳимоя ордери берилди. Шунингдек, ички ишлар органларида ҳисобда турадиган 302 нафар аёлнинг бандлиги таъминланди. 992 нафар хотин-қизга ҳуқуқий ва психологик кўмак кўрсатилди. 8 нафар вояга етмаганга васий тайинлаш, 28 нафар аёлнинг соғлигини тиклаш чоралари кўрилди. Бу каби саъй-ҳаракатларимиз 1610 та оилани яраштириш ҳамда 1477 та оилавий низога барҳам бериш учун муҳим омил бўлди.

Сайёра ХОЛМИРЗАЕВА,
вилоят ИИБ ЖХХ ХБП
хотин-қизлар масалалари
бўйича бўлими бошлиғи,
подполковник.

Жиззах вилояти.



Инсон қадри учун

МУАММОЛАР ЕЧИМ ТОПМОҚДА

– Сектор ҳудудида 9 та: «Қашқар», «Соҳибкор», «Сарбонтепа», «Қақир», «Ширмонбулоқ», «Зарғалдоқ», «Учтепа», «Тинчлик», Навоий номли маҳаллалар жойлашган бўлиб, уларда 41 779 киши истиқомат қилади, – дейди Булоқбоши тумани ИИБ бошлиғи, 3-сектор раҳбари, подполковник Жамшидбек Қосимов. – 12 та ўрта мактаб ва 7 та мактабгача таълим ташкилотида вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, болаларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказишини таъминлаш мақсадида турли тўғараклар ташкил этилган. Шунингдек, ўсмирлар шуғулланиши мумкин бўлган спорт тўғараклари фаолият олиб боради.

Хонадонма-хонадон юриш, индивидуал суҳбатлар ўтказиш чоғида бир қатор муаммолар аниқланди. Аҳоли асосан болаларни мактабгача таълим ташкилотларига жойлаштириш, иш билан таъминлаш, банкдан кредит олиш ва манзилли ёрдам кўрсатиш каби масалаларда ёрдам сўрашади.

«Тинчлик» маҳалласи Боғбон кўчасида яшовчи аҳоли ўз муро-

жаатида 800 метрлик йўл таъмир-талаб ҳолга келганини баён этган. Ҳозир бу кўчада шағал тўкиш ишлари олиб борилаётган бўлиб, келгусида асфальт ётқизиш кўзда тутилган.

«Соҳибкор» маҳалласида истиқомат қилувчи талаба Ҳаётбек Қўчқоров эса олий таълим муассасасидаги ўқиши учун контракт маблағининг бир қисmini қоплаб

беришни илтимос қилди. Оилавий шароити ўрганиб чиқилгач, йигит «Ёшлар дафтари»га киритилди ва яқинда туман ёшлар жамғармаси унинг таълим контрактининг бир қисmini тўлаб берди.

Сектор аҳолисини иш билан таъминлаш борасида муайян ишлар амалга оширилмоқда. Жо-

олиб боради. Ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг жадаллаштириш ва аҳолининг муаммоларини ҳал этиш бўйича ишлар давом эттирилмоқда.

Вилоят ИИБ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш бўлими ходимлари билан биргаликда мустақил равишда ҳаракатлана



рий йил бошидан бўш иш ўринлари ярмаркаси ўтказилиб, тумандаги 15 та ташкилот ва корхона иштирок этди. Унда 56 нафар аҳоли иш билан таъминланди. Айни пайтда сектор ҳудудида ишга муҳтож бир қанча ёшлар қайд этилган. Ҳозирда янги иш ўринларини ташкил этиш бўйича тегишли саъй-ҳаракатлар олиб борилмоқда.

Маҳаллаларда 12 километрлик қишлоқ йўллари таъмирланди. Сектор ҳудудида бугдой ва пахта етиштириш билан шуғулланувчи 29 та фермер хўжалиги фаолият

олмайдиган, ногиронлиги бўлган кишиларга ID-карталарини бериш ишлари амалга оширилмоқда.

Сектор ҳудудида «Хавфсиз ҳудуд» концепциясини жорий этиш ишлари жадаллик билан давом этмоқда. Бозорлар, дам олиш масканлари, тиббиёт ва таълим муассасалари, кўп қаватли уйлар, корхона-ташкилотлар, автомобиль ёқилғи қуйиш шохобчалари, кўчалар ва чорраҳаларда кузатув камераларини ўрнатиш ишлари олиб борилмоқда.

Борис КЛЕЙМАН.
«На посту» мухбири.

Андижон вилояти.





Mushtariy minbari

ENG KATTA MUKOFOT

Gazetamizning o'tgan sonida chop etilgan «Ana, melisa kelyapti, deya bolalarni qo'rqitmang» nomli maqola o'quvchilarimizni o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashishga undadi. Buni tahririyatimizga kelayotgan xat-xabarlar oqimi ham ko'rsatib turibdi. Quyida e'lon qilinayotgan dil izhori ham mazkur maqoladan mutaassir bo'lgan mushtariy maktubidir.

Bir sobit haqiqat bor: inson uchun eng ulug' ne'mat – tinchlik, ona uchun eng aziz inson – farzand! Baxtim shuki, yuragimning parchasi, jondan aziz farzandim – tinchlik va osoyishtalik posboni.

Sherzod bolaligida juda sho'x, o'yinqaroq edi. Ko'chadan beri kelmas, o'rtoqlari bilan «askar-askar» o'ynashni yoqtirardi. Ko'pincha, «Aya, katta bo'lsam, polkovnik bo'laman, ko'p askarlarim bo'ladi» deyishni qo'ymasdi. Qarangki, bolalikda qilingan orzu amalga oshmay qolmas ekan. Kunlarning birida «Aya, suyunchi bering, Akademiyaga o'qishga kirdim» degan so'zlaridan hayajonlanib ketdim. Ko'zimga yosh keldi. O'g'limning orzusi amalga osha boshlagandi. Lekin qalbim to'la xavotir edi. Axir, ularning hayoti xavf-xatarga to'la-ku! Ularda halovat degan narsa bo'lmaydi-ku...

To'rt yil o'tdi-ketdi. O'g'lim Sherzodjon Ernazarov Jizzax shahar Ichki ishlar boshqarmasiga xizmatga yuborildi. Uning ichki ishlar organi xodimi libosidagi ilk kunlari hali-hamon ko'z o'ngimda. Ona uchun bolasining orzusi amalga oshishidan ulkanroq baxt yo'q ekan. O'g'limni Jizzaxga kuzatib qo'yarkanman, u yerda o'n yillar qolib ketishini hali bilmasdim. U qo'shni viloyat ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilarkan, «lavoziyim oshdi, kapitan bo'ldim» yoki «bir odamning hayotini saqlab qoldim» degan so'zlari qalbimga taskin bo'lardi.

Kunlarning birida o'g'limga qo'ng'iroq qilib, tashvishli ovozi bilan qalqib tushdim. U gapini chala qildi-da, keyin qo'ng'iroq qilishini aytdi. Shu bilan bir sutkaga aloqa uzildi. Ertasi kuni kechqurun uning o'zi qo'ng'iroq qilib uzr so'radi. Ma'lum bo'lishicha, Jizzax

shahrida uch nafar jinoyatchini qo'lga olishga kirishilgan, bu vazifa o'g'limga topshirilgan ekan. Bir sutka davomida olib borilgan tinimsiz qidiruv natijasida ular tutib keltirilgan. Shu tariqa jinoyatchilar qilmishiga yarasha jazoga tortilgan.

Nihoyat o'g'lim xizmatini Gulistonda davom ettirdi. Uni Sirdaryo viloyati YHXBga bo'lim boshlig'i lavozimiga tayinlashdi. Endi u yonginamda. Lekin o'g'lim erta ketib, tun yarmidan og'ganda kirib kelardi. Xizmat vazifasi shuni taqozo qilardi. Bir tarafdun uning mas'uliyatligi, o'z kasbini sevishi meni xursand qiladi. Unga qayerda xizmat qilma, o'z vazifangni sidqidildan bajar, halol bo'l, odamlardan yaxshiligingni ayama, deya tayinlayman.

Bir kuni uyimizga bir guruh ichki ishlar organlari xodimlari kirib keldi. Rosti, shoshib qoldim. Birining qo'lida guldasta, boshqasining qo'lida sovg'a. Ular menga minnatdorlik bildirish uchun kelishibdi. Vatanga sadoqatli, fidoyi, o'z kasbining ustasi bo'lgan shunday farzandni tarbiya-

lab voyaga yetkazganingiz uchun sizga rahmat, deyishganida ko'kka parvoz qilganday bo'ldim. Uzoq yillar o'g'limning yo'liga termilib, tunlarni bedor o'tkazganim unut bo'ldi. Bu baxt, bu men uchun katta mukofot edi.

Hozirda o'g'limning unvoni podpolkovnik. Guliston shahar IIB YHXB boshlig'i. Hamon el xizmatida. O'g'limning o'z kasbidan topgan baxtini ko'rsatgani uchun ko'pdan-ko'p shukrona keltiraman. Dunyodagi barcha onalarga shunday baxt nasib etishini tilayman.

Sirasini aytganda, bu satrlarni faqat o'g'limdan faxrlanganim uchungina bitmayapman. Yuqorida tilga olingan

maqolani o'qiganimdan keyin unda aytilgan fikrlar ko'nglimdan kechganlarga uyqash bo'lgani uchun ham qo'limga qalam oldim. Chindan ham, o'g'lim, uning hamkasblari, Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishni o'zlarining oliy burchi deb bilgan minglab ichki ishlar organlari xodimlari bolalarni qo'rqitish vositasi emas, aksincha, o'rnak, namuna qilib ko'rsatadigan fidoyi insonlardir.

Zulfiya ERNAZAROVA.

Sirdaryo viloyati.



Xizmat vazifalarini bajarish vaqtida xodimlarning tashqi ko'rinishi, ish sharoiti va xizmat tadbiri xususiyatini inobatga olgan holda, aholida ichki ishlar organlariga nisbatan hurmat uyg'otishi, ular toza va orasta kiyingan bo'lishi zarur.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksidan.



Teamp – ubratxona

ЭЗГУЛИК МАЁФИ

Халқимизда «Адабиёт ва санъатга ошно кўнгилдан ёмонлик чиқмайди» деган ҳикмат бор. Айни сўзлар санъат ва адабиёт эзгулик маёфи эканлигидан далолат беради.



Зеро, ҳар қандай санъат тури инсонни эзгуликка чорлайди, унинг қалбига энг гўзал ҳис-туйғуларни инъом этади. Бу борада, айниқса, театр ва кино санъати энг оммабоп воситалардандир. Одамларнинг, шу жумладан, ички ишлар органлари ходимларининг маънавий-маърифий дунёқарашини юксалтиришда, онгу тафаккурини бойитишда театр санъатининг ўрни ғоят бекиёсдир.

Миллий театримиз асосчиларидан бири, улуғ маърифатпар-

вар Маҳмудхўжа Бехбудий «Театр ибратхонадир», деган бўлса, Юртбошимиз уни маънавият ўчоғи, ижод аҳлини эса инсон қалбининг муҳандислари, дея юксак таърифлайди. Ҳақиқатан ҳам, театр шунчаки оддий томоша маскани эмас, балки инсон ҳаётининг кўзгуси сифатида унинг ютуқ ва камчиликларини кўрсатувчи, яшашни, курашни ва зафар қучишни ўргатувчи тарбия, маънавият ва маърифат маскани, ҳар қандай даврда,

ҳаётий сабоқлар берувчи жонли воситадир.

Вилоятлар ва пойтахтдаги театр масканларида ички ишлар органлари ходимлари ва уларнинг оила аъзоларининг театрга боришлари, янги сахналаштирилаётган спектакллари томоша қилишлари яхши йўлга қўйилган.

Масалан, жорий йилнинг 4 февраль куни Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон давлат академик катта театрида бўлиб ўтган «Жалолиддин Мангуберди» балети премьерасида қатнашган Ички ишлар вазирлиги Марказий аппарати соҳавий хизматларининг ходимлари халқимизнинг миллий қаҳрамони Жалолиддин Мангуберди ҳаётини акс эттиришда замонавий тарзда янгича ёндашилганига гувоҳ бўлишди.

Бундай маданий тадбирлар Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда ҳам давом эттирилмоқда.

Ўйлаймизки, ходимларимизнинг театр масканларига ташриф буюриши, биринчидан, уларнинг маънавий-маърифий дунёқарашини юксалтирса, иккинчидан, ҳаётдаги ютуқ ва камчиликларни илғаб олишида муҳим аҳамият касб этади.

Авазбек ИНОМОВ,
подполковник.

«TOURIST POLICE» – ISHONCHLI HIMOYA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

2022-yilda 2 qavatli zamonaviy jihozlangan xizmat binosi qurilib, foydalanishga topshirilgani boshqarma xodimlarining imkoniyatini yanada kengaytirdi. Ushbu binoda xodimlar xizmat olib borishi uchun kerakli jihozlar bilan ta'minlangan alohida xonalar hamda situatsion markaz tashkil etilgan bo'lib, sayyohlarning viloyat hududiga kirib kelishidan tortib, qaysi mehmonxonaga joylashib, «Ye-mehmon» bazasidan ro'yxatdan o'tishi, qaysi sayyohlik obyektlariga borishi va qaytib chiqib ketishi doimiy ravishda kuzatib borilmoqda.

Situatsion markazda sutkalik navbatchilik asosida xizmat olib borilishi tufayli sayyohlar tomonidan kelib tushayotgan murojaatlar o'z vaqtida qabul qilinib, tegishli yordam ko'rsatib kelinyapti. Hozirda markazga tumanlardagi 113 ta kuzatuv kameralari integratsiya qilingan bo'lib, bu sayyohlik obyektlarini nazorat qilish imkonini beryapti.

Feruza RAHMONQULOVA,
«Postda» muxbiri.

Surxondaryo viloyati.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

AYOL — HAYOT CHAROG'BONI

Mamlakatimizda 9 milliondan ziyod oila mavjud. Bu degani, millionlab odamlarning, ayniqsa, xotin-qizlarning dard-u tashvishi, quvonchi, kelajak rejasi mana shu kichik makonlarda mujassamlanadi. Oilada ma'naviy muhitni yaxshilash, farzandlar tarbiyasidagi mas'uliyat, milliy qadriyatlarni singdirish va qator tashabbuslarda faol, shijoatli va tashabbuskor ayollarning o'zni bor.

Yurtimizda 17 milliondan ortiq xotin-qizlar istiqomat qiladi. Bugungi kunda xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlarni har bir sohada, jabhada ko'rish mumkin. Xususan, Respublika Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan «Xotin-qizlar.uz» milliy platformasi yaratilib, unda mahalla xotin-qizlar faollarining sa'y-harakati bilan xotin-qizlarning anketa so'rovnomalari to'ldirilib, ma'lumotlar bazasiga joylashtirildi. Bu degani, har bir xotin-qizning holati, u nimga muhtoj-u qanday yutuqlarga ega ekanligigacha aniq ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Misol uchun, 14 mingga yaqin xotin-qizlarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash choralarini ko'rildi.

Xotin-qizlarimizni qiynaydigan aksar muammolarning ildizi bilimlarning yetishmasligi, huquqiy savodxonlik darajasi yetarli emasligi bilan bog'liqdir. Afsuski, oiladagi ajrimlar, kelishmovchiliklar sabab uysiz, joy-siz qolayotgan, hattoki bolalarining ta'minoti uchun ham pul talab qila olmayotgan ayollarimiz bor oramizda.

Bugun xotin-qizlarning ta'lim olishi borasidagi orzulari amalga osharmoqda, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Xotin-qizlar ta'limiga alohida e'tibor berilayotganligi tufayli ayni paytda talabalarining 46 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida xotin-qizlarga ta'lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022–2023-o'quv yilidan boshlab bir qancha imtiyozlar berildi. Xususan, yangi o'quv yilidan boshlab ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tartibi joriy qilinishi, magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq budjetdan qoplab berilishi, ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qotgan talaba qizlarning ta'lim kontrakti ma-

halliy budjetdan to'lanishi, qizlarimizni nufuzli xorijiy oliygohlarga bakalavriat va magistratura dasturlari bo'yicha ta'lim olishga yuborilishidagi imtiyozlar muhim ahamiyatga egadir.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi «Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida ta'lim olishi uchun ta'lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta'lim olayotgan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt summasini davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Jamiyatimizda olim ayollar ulushini sezilarli oshirish maqsadida doktorantura yo'nalishida

«...Xotin-qizlar va oila masalasi – bu kundalik ishlar orasida shunchaki nomiga shug'ullanadigan masala emas. Bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan vazifa, kerak bo'lsa, masalalarning masalasidir».

Shavkat MIRZIYOEV

Shu o'rinda joriy yilning 19-yanvarida «Ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalari huzuridagi «To'maris izdoshlari» jamoaviy guruhlarini faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hukumat qarori qabul qilinganini ham aytish lozim. Mazkur guruhlarining asosiy vazifalaridan biri o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida o'qiyotgan qizlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan hamda ularning huquq va manfaatlarini buzilishi bilan bog'liq masalalarni aniqlashda ko'maklashish hisoblanadi.

Mamlakatimiz mudofaa qudratini yuksaltirish, jamiyatda hukm surayotgan millatlararo totuvlikni, tinchlik va barqarorlikni asrashga munosib hissa qo'shayotgan ayol harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida «To'maris» ko'krak nishoni ta'sis etilgani ham ayollarga ko'rsatilayotgan e'tiborning yuksak namunasidir.

Keyingi paytlarda xalqimiz orasida gender tengligi deganda, ayollar ustunligini ta'minlash degan noto'g'ri fikr ham shakllanayotgani bor gap. Aslida unday emas. Azaldan oilada ayolga hurmat bilan qarashgan. Aynan bizning qadriyatlarimiz asosida otaga hurmat, uni ulug'lash va e'zozlash qadriyatlari shakllantiriladi. Bugun ayollar mulkdor bo'lishi, har bir jabhada erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lishi uchun harakat qilinayapti. Xusu-

xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilishi, davlat boshqaruvida ayollar faolligini oshirish bilan bog'liq ko'rsatmalar ta'lim sohasida faoliyat yuritib kelayotgan olim opa-singillarimiz uchun ko'rsatilgan ishonch va qo'llab-quvvatlash bo'ldi.

Bugungi kunda o'nlab akademik va professorlar, fan doktorlari va fan nomzodlari, yuzlab iste'dodli tadqiqotchi xotin-qizlar bor. Oila tashvishlari va farzand tarbiyasini ilmiy tadqiqot bilan birga olib borayotgan, bu borada amaliy yutuq va natijalarga erishayotgan olim ayollar chinakam matonat va jasorat sohibalaridir.

Ayni paytda yurtimizda 396 nafar qizlar «Zulfiya» nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lishgan. Har yili 28 nafar o'z sohasidagi iste'dodli, muvaffaqiyatlarga erishgan qizlar «Zulfiyaxonim izdoshlari» nomini olishga muvassar bo'lishmoqda. 1147 nafar «Mo'tabar ayol» ko'krak nishoni sohibalari bor. Ta'lim muassasalarida, mahallalarda «Qizlarjon» klublari ishi takomillashtirilib, ularning soni 20 ming nafarga yetkazilishi rejalashtirilgan.



Ozoda PARPIBOYEVA,
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi.

yasi bilan hamkorlikda rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha 60 soatlik malaka oshirish kurslarida 319 nafar rahbar xotin-qizlar o'qitildi.

Kelgusida oldimizga qo'ygan maqsadlarimiz bisyor. Har bir oilaga kirib borish, ayollar bilan alohida ishlash bo'yicha tizimli ishni yo'lga qo'ymoqdamiz. Maqsadimiz esa aniq: barcha oilalarga sog'lom muhitni kiritish. Xotin-qizlarning esa muammolarini o'z joyida hal etish. Bu borada bugungi kunda Qo'mita tomonidan shakllantirilgan «Oqila ayollar» harakatining bir yuz ellik mingga yaqin a'zolari bilan ishni hamkorlikda olib borish yo'lga qo'yilgan. Mahallalardagi 118115 nafar «Ko'chaboshi», «Uyboshi» ayollarning faoliyati tahlil qilinadi. Ularni farzand tarbiyasi, ota-onalarning mas'uliyati borasidagi targ'ibot ishlarida-gi faolligi oshiriladi.

Ayni paytda ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari mutasaddi idora va tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikda mahallalarda uyma-uy yurib, aholining tashvish va muammolarini o'rganish asosida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning o'z qobiliyati hamda imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga amaliy yordam ko'rsatmoqda. Bu esa muammo-si hal bo'layotgan xotin-qizlarning ichki ishlar organlari xodimlari, ayniqsa, ayol xodimlarga bo'lgan ishonchi va meh-rining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, sohada rahbar ayollarning soni oshayotgani ham tizimda yanada samarali ishlar amalga oshirilishiga zamin bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish, ularning siyosiy huquqlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani tufayli ularning jamiyatdagi tutgan o'zni yuksaldi.

Zero, ayolni, onani e'zozlangan yurtning qudrati ortib boraveradi, kelajagi buyuk va nurafshon bo'ladi.



СОҶА ФИДОЙИЛАРИ

ФАОЛИЯТИМИЗДА ҲАР БИР СЎЗ АҲАМИЯТЛИ

«Ўғлим, мен тинчгина ибодатимни қилиб юрган одамман. Сен айтган китоблар менда нима қилади? Бекорга шубҳаланяпсан. Ёшим бир жойга борганда бу ишлар менга ярашмайди».



Ёши олтимышларга яқинлашиб қолган гумон қилинувчи ҳар бир саволга шу тарзда узр-маъзурини қўшиб, «оталарча меҳр-оқибат билан» жавоб қайтарарди. Хизмат жараёнида сувдан куруқ чиқиш учун, «ниқоб» тақиб оладиганларни кўп кўрган Ургут туман ИИБ 1-сонли ИИБ суриштирув гуруҳи катта суриштирувчиси, капитан

Шерзод Сафаров бу сафар ҳам қаршисида ўтирган фуқаронинг юз-кўзидан асл мақсадни аллақачон тушуниб етганди. Аммо вазиятни тўлиқ назоратига олиш учун бир оғиз сўз ҳам аҳамиятли эканлигини билгани кўйи терговни давом эттирарверди.

«Касални яширсанг, иситмаси ошкор қилади», дегани шу бўлса керак-да,

гумон қилинувчининг яшаш хонадонидида ўтказилган тинтув вақтида тақиқланган диний адабиётлар ва дисклар топилди. Ташвишлиси шундаки, оила бошлиғи

икки ўғли ва аёлини ҳам динни ниқоб қилиб олган қора қилмишига бошлагани бўлди...

– Суриштирув жараёнида бундай ҳолатлар тез-тез кузатилади, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Кўпчилик жазодан қутулиб қолишга уринади. Бу эса ишга доир жиҳатларни янада синчковлик билан ўрганиб

чиқишни тақозо этади. Баъзан мантиқий фикрлаш, ҳар бир жумлага эътибор қаратиш ноқонуний ҳолатнинг фош қилинишида қўл келади. Нима бўлган тақдирда ҳам, жиноятга адолатли баҳо беришда холис тергов қилиш аҳамиятга эга эканлигини ходим унутмаслиги зарур.

Шу ўринда гумон қилинувчига айбига иқдор

бўлишдан бошқа чораси йўқ эканлигини англатиш терговчининг маҳорати, билим уфқининг кенглигига боғлиқ эканлигини таъкидлаш жоиз. Бунда терговчи нафақат фидойи, жонкуяр, шунингдек, соҳа билимдони бўлиши, ма-лака ва кўникмаларини ошириб бориши керак.

– Қонунчиликдаги янгиликларни мунтазам ўрганиб бораман, – дейди капитан Шерзод Сафаров. – ИИБ Академиясини тугатиб, илк хизматни бошлаган кезларим устозим подполковник Лазиз Пиримов «Қонун посбони, аввал ўзи қонунларнинг мазмун-моҳиятини яхшилаб ўзлаштириши керак. Ҳеч қачон ўз устингда ишлашдан эринмагин», дея кўп бора такрорлаган.

– Ўзим педагогман, ҳуқуқий саводхонлик кундалик турмушимизда ҳамisha кераклигини биламан, – дейди Севара Бойқобилова. – Турмуш ўртоғимнинг касби ўзига хос машаққатли эканли-

гини тушунаман. Бироқ улар хизмат вазифаларидан ортиб, ҳамisha оиласи, яқинларига эътибор қаратади. Айниқса, фарзандларимиз Шўҳратжон, Шохисломларга ҳуқуқий тушунчаларни содда, раво тилда ўргатганда, қойил қоламан. Ўғилларимнинг келажакда отасининг издоши бўлишини жуда хоҳлайман.

Ҳаётда изланишдан тўхтамаган инсон мақсадлари пиллапоясидан илдамлаб бораверади. Капитан Шерзод Сафаров ана шундайлардан бири, десак, муболаға эмас. Тиришқоқлиги ва ўзига нисбатан ниҳоятда талабчанлиги туфайли ҳозирга қадар унга ишониб топширилган жиноят ишларининг бирортаси ҳам суддан қайтмаган. Зотан, у адолат тантанасига ўз касбининг билимдони, зийрак терговчи сифатида муносиб ҳисса қўшиб келмоқда.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
«Postda» мухбири.
Самарқанд вилояти.

НУРАЛИНИНГ НУРЛИ ЙЎЛИ

...Кўққисдан жиринглаган телефон гўшагини кўтарган ИИБ Транспорт ва туризм объектиларида хавфсизликни таъминлаш департаменти Нефть маҳсулотларини кузатиш батальони кадрлар гуруҳи катта инспектори, лейтенант Нурали Норматовнинг бирданига чехраси ёришди. Бироз гаплашиб, охирида «Сиз учун мен ҳам хурсандман, буюрсин» дея гўшакни жойига қўйган лейтенант бироз ўйга чўмди. Кимгадир кўмаклашиш, мушкулени осон қилиш нақадар хайрли эканини ҳис қилди. Қалбидан чексиз фахр ҳиссини туйди.

Гап шундаки, уй-жойга ҳақиқатан муҳтож бўлган батальон ходимларининг ҳужжатларини ижтимоий ҳимоя қилиш масалаларини бўйича комиссияга тақдим этганди. Бугун улардан бири хонадон калитини олиб, уйига кўчиб кирибди.

– 2017–2022 йилларда кўплаб ходимларга моддий ёрдам ажратилди, санаторияларга йўлланмалар берилди, – дейди лейтенант Н.Норматов. – Тураржойга муҳтож бўлган ходимларга ижтимоий ҳимоя қилиш масалалари бўйича комиссия қарорига кўра уй-жой берилди, ижарада яшаётганларига пул компенсацияси тўланиши учун ҳужжатлар молия-иқтисод бўлиmlарига тақдим этилди.

Жиззах вилоятида туғилиб ўсган Н.Норматовнинг мазкур соҳавий хизматда фаолият кўрсатаётганига ҳам бу йил 18 йил

бўлди. 2005 йили ИИБ Академияси Сержантлар таркибини тайёрлаш олий курсини тамомлагандан буён ички ишлар органларининг транспортда хавфсизликни таъминлаш йўналишида хизмат қилиб келяпти. Дастлаб «Ховос» темирйўл бекатида хизмат кўрсатиш бўйича 2-отрядда гуруҳ командири лавозимида хизмат қилган бўлса, кейинчалик отряд командирининг ўринбосари сифатида фаолият кўрсатди. Шу орада хизматдан ажралмаган ҳолда Жиззах давлат педагогика институтини тамомлаб, олий маълумотли бўлди. 2016 йили хизматни «Тошкент» темирйўл бекатида хизмат кўрсатиш бўйича 6-отрядда давом эттирди. Кейинчалик Нефть маҳсулотлари ташилишини кузатиш бўйича алоҳида милиция батальонида касбий ва жанговар тайёргарлик бўйича катта инспек-



тор, кадрларни ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилиш бўйича катта инспектор лавозимларида хизмат қилди. Айни пайтда эса батальон кадрлар гуруҳи катта инспектори сифатида шахсий таркибга салоҳиятли кадрларни жамлашга ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда.

Энди хизматни бошлаган пайти отаси Абдунаби ака дуо қилиб,

«Қўлингдан келганича одамларга яхшилик қил, ёрдамнингни аяма» деганди. Бугун ўша ўғитга амал қилиб келаятган Нурали Норматов кам бўлмапти. Хизматда яхши натижаларга эришиб, ҳамкасбларига ўрнак бўлиб келмоқда.

Фозилжон МАМАШАРИПОВ,
«Postda» мухбири.



Урок духовности и просвещения

Женщина – светоч жизни

«...Девочка – это будущая мать, хранительница семейного очага. Ведь от того, какое образование и воспитание мы им дадим сегодня, зависит то, каким завтра они воспитают новое поколение».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.



Издревле женщина являлась хранительницей очага. В очаге всегда горел огонь, на нем готовили пищу, грелись возле него. Очаг – это сердце дома, источник тепла и света, жизни и благополучия. Именно жизнь хранила женщина, создавая уют, неповторимую атмосферу, вкладывая в окружающее пространство частичку себя.

Женщину всегда называли мудрой. Это значит, что она сдержана, верна, жертвует всем ради благополучия семьи. Она творец по натуре, и инструментами ее творчества являются любовь, понимание и терпение. Она умеет прощать себе и другим, понимая, что все люди несовершенны и могут ошибаться. Она способна контролировать эмоции и жить в гармонии с собой и окружающими. Такой была женщина во все века, такой должна оставаться и сегодня, несмотря на то, что жизнь вносит коррективы в образ хранительницы очага.

Современным представительницам прекрасного пола в век высоких технологий и бешеных темпов намного сложнее, чем их предшественницам. Их роль в обществе радикально изменилась, поменялся статус. Женщины доказали, что обладают разносторонними способностями и талантами и могут наравне с мужчинами трудиться на благо общества. Они равноправные участницы исторического процесса, его движущая сила.

Наши соотечественницы участвуют в государственном управлении, принимают важнейшие политические решения, развивают общественную деятельность, реализуют крупные бизнес-проекты, занимаются наукой, наравне с мужчинами стоят на страже порядка и законности. За что бы они ни брались, ко всему подходят с большой ответственностью и душой, получают

в ответ заслуженные признание и уважение.

Примером сказанному может служить состоявшийся недавно в Ташкенте международный форум «Роль женщин в устойчивом развитии науки, технологий и инноваций в обществе», приуроченный к 11 февраля – Международному дню



женщин и девочек в науке. Этот день был провозглашен Генеральной Ассамблеей ООН 22 декабря 2015 года и созвучен с утвержденной на 2023 год государственной программой «Год заботы о человеке и качественного образования».

Государство активно поддерживает женщин в их стремлении к образованию. Просвещая представительниц прекрасного пола, особенно подрастающее поколение, в частности тех, кто живет в отдаленных регионах страны, мы закладываем основу нашего будущего.

Сегодня женщины участвуют в исследовательской деятельности, осваивают новую технику, вносят свой вклад в создание конкурентоспособных продуктов. Повышается их научный, творческий, интеллектуальный потенциал. Они стремятся приобретать современные, востребованные профессии.

Труд многих наших соотечественниц получает международное признание. Успешные представительницы прекрасной половины человечества становятся примером для других женщин, мотивируя их на преодоление себя и возможных препятствий, возникающих на пути к достижению поставленных целей. Они заслуживают, чтобы их уважали и ценили.

Мы привыкли, что среди соотечественниц чаще всего можно встретить педагогов, медицинских

оказывают моральную поддержку и помощь.

Сотрудницы органов внутренних дел достигают отличных результатов в служебной деятельности, за добросовестную службу награждаются почетными грамотами, нагрудными знаками, медалями, получают внеочередные звания. Они постоянно повышают свою квалификацию, уровень физической и боевой подготовки.

Женщина – светоч жизни, она, словно солнце, дарит тепло своего сердца всем членам семьи и заслуживает самого трепетного и уважительного к себе отношения. К сожалению, не всегда ее домашние думают так же. К соотечественницам, которых обижают, принижают их честь и достоинство, приходят на помощь старшие инспектора по вопросам женщин.

За последние годы многие тысячи женщин получили охранные ордера, защищающие их от домашней тираннии. И в этом большую роль сыграли сотрудницы органов внутренних дел, которые своим умением выслушать, понять, по-матерински успокоить, проникнуться особенностью создавшейся ситуации и прийти на помощь по первому зову изменили облик стражей порядка в глазах всего общества. Они зажигают огоньки любви, сострадания и надежды в душах соотечественниц, попавших в сложные жизненные обстоятельства. И это – показатель того, с каким уважением и заботой относятся к матерям и сестрам, женам и дочерям в Новом Узбекистане. Исчезают ограничения по признаку пола при приеме на работу, получении образования, оплате труда, продвижении по службе. Государство оказывает поддержку в получении жилья, работы, выделении кредитов. Все это способствует полному устранению дискриминации в отношении представительниц прекрасной половины человечества.

В женщине заключена большая внутренняя сила. Она привносит любовь и гармонию в семью – маленькую ячейку общества, следовательно, и во все общество в целом. Беречь и заботиться о женщине – значит беречь и заботиться о благополучии государства.

Динара ШАМУХАМЕДОВА,
корреспондент «На посту».





Spartakiada

MUSOBAQALARGA START BERILDI

Yaqinda «Dinamo» jismoniy tarbiya va sport jamiyati respublika kengashi tashabbusi bilan mamlakatimiz huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari o'rtasida XXXII Spartakiada musobaqalari boshlandi.

Uning avvalida so'zga chiqqan kengash raisining o'rinbosari, polkovnik Erkin Qayumov ushbu musobaqani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyat a'zolarining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam

shug'ullanishini yanada kuchaytirish, osoyishtaligimiz posbonlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish hamda harbiy va ommaviy sport turlarini jadal rivojlantirishdan iborat ekanligini ta'kidladi.



Shuningdek, tadbirda o'tgan yilgi Spartakiada musobaqalari g'oliblarini taqdirlash marosimi ham bo'lib o'tdi. Unga ko'ra, barcha raqiblarni dog'da qoldirgan Respublika Davlat xavfsizlik xizmati terma jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, Prezident Davlat xavfsizlik xizmati sportchilari shohsupaning ikkinchi pog'onasini zabt etishdi. Ichki ishlar vazirligi terma jamoasi esa 3-o'ringa loyiq topildi. G'oliblarga tashkilotchilar tomonidan kubok, faxriy yorliq va qimmatbaho esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi.

– Bor imkoniyatimizdan unumli foydalangan holda, sovrindorlar safidan joy oldik, – deydi voleybol bo'yicha IIV terma jamoasi hujumchisi, leytenant Saddam Ismatov. – Bu



galgi bahslarda esa yanada shijoat ko'rsatib, shohsupaning yuqori pog'onasidan joy olishga astoydil harakat qilamiz.

Shundan so'ng an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan to'qqizta sport turidan iborat musobaqaning bu yilgi bosqichiga start berildi. Qur'a tashlash natijalariga ko'ra, tomoshabinlarning katta qiziqish va olqishlariga sabab bo'lgan bellashuvlarni IIV Transport va turizm

obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti hamda Qorovul qo'shinlari sportchilaridan tashkil topgan voleybol jamoalari boshlab berishdi. Ikki hafta davomida qizg'in bahslar ostida bo'lib o'tadigan musobaqalarda sportchilarimizga ulkan zafarlar tilab qolamiz!

Mixli SAFAROV,
«Postda» muxbiri.
Ikrom HASANOV
olgan suratlar.



Kўрик-танлов

РЕСПУБЛИКА ФОРУМИГА ЙЎЛЛАНМА

ИИВ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаменти ҳамда унинг тасарруфидаги муассасаларда хизмат қилаётган ходималар ўртасида «Аёл – меҳр-садоқат ва тараққиёт тимсоли» шиори остида кўрик-танлов ўтказилди.

«Заковат» интеллектуал ўйини, «Энг яхши китобхон» ҳамда шахмат мусобақаси йўналишларини ўз ичига олган кўрик-танлов 7 та жамоа ва уларнинг етакчилари ўртасида қизгин баҳс-мунозараларга бой тарзда ўтди. Дастлаб Департамент бошлиғининг ўринбосари, полковник Гафур Курамбаев иштирокчиларга омад тилади.

Сўнг «Заковат» интеллектуал ўйини ўтказилиб, 1-ўринни Департаментнинг «Қалқон», 2-ўринни 7-сон жазони ижро этиш муассасасининг «Жасорат» ва 3-ўринни 23-сон маҳкумлар учун ихтисослашган касалхонанинг «Омаддилар» жамоалари қўлга киритди.

«Энг яхши китобхон» йўналишида 1-ўринни «Вақт-Время» газетаси таҳририяти катта мутахассис-мухбири, катта лейтенант Х. Утаева, 2-ўринни 23-сон маҳкумлар учун мўлжалланган касалхона шифокор-фтизиатри, майор Н. Муҳаммадиева, 3-ўринни 1-сон тергов ҳибсхонаси кичик инспектори, сафдор С. Баратова эгаллади.

Шахмат мусобақасида эса мутлақ ғолиблик 21-сон жазони



ижро этиш муассасаси ходимаси, подполковник Д. Мирмахсудовага насиб этди. 13-сон жазони ижро этиш колонияси ходимаси, капитан Э. Мавланова 2-ўрин, 23-сон маҳкумлар учун ихтисослашган касалхона ходимаси, сафдор В. Галбаева 3-ўрин соҳибаси бўлишди.

Барча шартлар бўйича биринчи ўринни эгаллаган ходималар жорий йилнинг 27-28 февраль кунлари Самарқанд шаҳрида ўтказиладиган ички ишлар органлари хотин-қизлари II Республика форумига йўлланмани қўлга киритишди.

Шаҳризод ШОКИРОВ,
ИИВ ҳузуридаги ЖИЭД Ахборот хизмати ходими, катта лейтенант.





Чекка ҳудудларда

БОҒОБОДНИНГ ОСОЙИШТА ҲАЁТИ

Ҳисор тоғ тизмасининг жанубий-ғарбий тармоқлардан бўлган Чақчар Қамаш туманида жойлашган бўлиб, вилоятдаги энг баланд тоғлардан биридир. Туман марказидан 80 километр масофада жойлашган бу тоғлар бағрида «Боғобод» қишлоқ фуқаролар йиғини жойлашган. Фуқаролар йиғини таркибига кирувчи Қўшқўл, Қаранқул, Олма, Терс ота, Толли, Супа, Кийик, Эгрисув қишлоқларида ўзбеклар ва тожиклар осойишталикда истиқомат қилиб келади.



Жанубдан Ғузор ва Деҳқонобод туманлари, шарқдан Сурхондарё вилоятининг Бойсун тумани билан чегарадош ҚФЙ аҳли асосан чорвачилик ва деҳқончилик ортидан даромад топади. Қиш тугаши билан бирорта бекорчи одамни топа олмайсиз. Ҳамма деҳқончилик ёки чорвасини боқиш билан машғул бўлади.

Тоғликларнинг орияти кучли бўлади. Шу боисдир, бу ғўша одамлари уйдаги гапни ташқарига чиқармасликка, ўзаро келишмовчиликларни оқсоқоллар иштирокида босиқлик ва мулоҳаза билан ҳал қилишга одатланган. Бу, албатта, ҳудудда ху-

куқбузарликлар ва жиноятлар содир этилишининг олдини олишда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Қишлоқ фуқаролар йиғинида осойишталикни таъминлаш туман ИИБ ХПБ 53/24-сонли таянч пункти профилактика инспектори, капитан Ориф Холматов зиммасида. У доим одамлар орасида. Ҳар қандай нохуш ҳолатнинг барвақт олдини олишни жиноятчиликка қарши курашда энг самарали йўл деб биладиган профилактика инспекторини гоҳ у қишлоқда, гоҳ бу қишлоқда учратасиз. Баъзан мактабларда тарғи-

бот-тушунтириш ишларини олиб бораётгани устидан чиқасиз.

– Ҳудудимизда 3500 нафардан ортиқ аҳоли истиқомат қилади, – дейди қишлоқ фуқаролар йиғини раиси Хуршид Каримов. – Профилактика инспектори, капитан Ориф Холматов билан доимий равишда профилактик тадбирлар ўтказиб турамыз. Бу ўз самарасини бериб, барча турдаги жиноятлар барҳам топмоқда. Ҳудудимизда нотинч оилалар йўқ. Бир сафар икки қўшни ўртасида низо чиқди. Профилактика инспектори ҳамда фаоллар ҳамроҳ-

лигида ана шу оилаларда бўлиб, тушунтириш ишларини олиб бордик. Ҳаёт тажрибаси бой инсонларнинг насиҳати қўшниларнинг ярашишига замин ҳозирлади.

– Аҳоли бандлигини таъминлаш ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишда кутилган натижани беради, – дея суҳбатга қўшилади профилактика инспектори, капитан О.Холматов. – Шу сабабли бу масалага алоҳида эътибор қаратганмиз. Масалан, ўтган йили «Ёшлар дафтари»га киритилган 50 нафарга яқин ёшлар, «Аёллар дафтари»да рўйхатда турувчи 150 нафарга яқин хотин-қизларга деҳқончилик қилиши учун ер ажратилди, банк кредити асосида тадбиркорлик билан шуғулланиши учун амалий ёрдам кўрсатилди. Кўплаб фуқароларимизга тикув машиналари, мини печлар олиб берилди.

Ҳудудда 6 та навбатчилик пости ташкил қилинган. Фуқаролар ушбу постларда навбатчилик қилиб, осойишталикни таъминлаш йўлида астойдил ҳаракат қилишади. Бу, айниқса, тунги вақтда рўй бериши мумкин бўлган турли ноқонуний ҳолатларнинг олдини олишда муҳим роль ўйнамоқда.

Содиқ РАҲИМОВ,
«Postda» мухбири.

Қашқадарё вилояти.



Йўл қоидаси – умр фойдаси

МАҚСАД – ҲУҶГИСЛИКЛАРГА ЧЕК ҚЎЙИШ

Барча ҳудудларда бўлган каби, Тошкент вилоятида ҳам йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш мақсадида кўплаб амалий ишлар қилинмоқда. Натижада автоҳалокатлар сони камайишига эришиляпти. Жорий йил бошидан ҳозирга қадар вилоят ҳудудида рўй берган йўл-транспорт ҳодисалари ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 9 тага, айниқса, болалар иштирокидаги автоҳалокатлар сони сезиларли даражада камайгани бунинг тасдиғидир.

Ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш ва назорат қилиш йўналиши бўйича ҳам бир қатор ишлар олиб борилиб, 26482 та қоидабузарлик аниқланган. Шундан 3500 таси қувиб ўтиш, 2482 таси одам ташиш, 260 таси маст ҳолда транспорт воситасини бошқариш, 188 таси уяли алоқа воситаларидан фойдаланиш билан боғлиқ қоидабузарликлар саналади.

Соҳавий хизмат ходимлари томонидан жиноятчиликка қарши курашиш борасида олиб борилаётган ишлар ҳам эътиборга молик. Хусусан, жорий йилнинг ўтган даврида бошқа соҳавий хизматлар билан ҳам-

корликда 9 та жиноят фош қилинди. ЙПХ масканлари ва блок постлари орқали гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний олиб ўтилиши билан боғлиқ 5 та ҳолат аниқланиб, жиноятчилардан муайян миқдордаги «оғу» олиб қўйилди.

Таассуф билан айтиш керакки, йўл ҳаракати қоидаларини назар-писанд этмаётган юртдошларимиз ҳам йўқ эмас. Ангрен шаҳрида ўтказилган рейд давомида давлат рақам белгисини ўзбошимчалик билан ечган ҳолда ҳаракатланаётган «Нексия» русумли автомобиль тўхтатилиб, ҳайдовчига нисбатан маъмурий баённома расмийлаштирилди, транспорт воситаси вақтинчалик жарима майдончасидан жойлаштирилди. Чирчиқ шаҳридаги Алишер Навоий кўчасида «Жентра» русумли автомашинани ҳайдовчилик гувоҳномаси умуман йўқ «ҳайдовчи» бошқариб келаётгани аниқланди. Табиийки, ҳолат юзасидан маъмурий чора кўрилди.

– Йўл-транспорт ҳодисалари мавжуд қоидаларга риоя этмаслик, масъулиятсизлик оқибатида юзага кел-



моқда, – дейди вилоят ИИББ ЙХХБ Ахборот хизмати бошлиғи, капитан Рустам Асқаров. – Жорий йилнинг ўтган даврида ҳудудда аниқланган бир қатор қоидабузарликлар бунинг исботи бўла олади. Ўз вақтида кўрилган чоралар натижасида кўплаб йўл-транспорт ҳодисаларининг олди олинапти.

Вилоят ИИББ ЙХХБ томонидан йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш борасида муҳим саналган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилиб, юқори ташкилотларга юборилмоқда. Шу билан бирга, қатор инновацион лойиҳалар яратилиб, амалиётга жорий этилаётгани

қувонарли ҳол. Масалан, яқинда Нурафшон шаҳри ҳудудидан ўтувчи 4R-22 Тўйтепа – Янгийўл автомобиль йўлининг пиёдалар ўтиш жойида махсус чироқлар ёрдамида ёритилувчи янги намунадаги тажриба йўлаги фойдаланишга топширилди. Бундан кўзланган мақсад, ҳайдовчилар ва пиёдалар учун қулайлик яратиш орқали йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олиш. Келгусида бу каби пиёдалар ўтиш жойларини вилоятнинг барча ҳудудларида барпо этиш кўзда тутилган.

Михли САҒАРОВ,
«Postda» мухбири.

Тошкент вилояти.



В центре внимания — интересы человека

ЯРМАРКИ ВАКАНСИЙ

Ярмарки вакансий — одна из эффективных форм работы по содействию гражданам в их трудоустройстве.

В Аккурганском районе по инициативе руководства 3-го сектора и Центра содействия занятости населения состоялась ярмарка вакансий. Мероприятие проходило в Центре молодежи и культуры, на котором свободные рабочие места представили 24 предприятия. В ходе ярмарки 9 лицам оформлены направления на постоянное трудоустройство, 5 человек получили направления на временные оплачиваемые



общественные работы, 16 соискателей решили получить востребованную на рынке труда профессию на курсах моноцентра «Ишга мархамат».

Служба пробации также оказывает непосредственную помощь в трудоустройстве подучетным лицам. Так, в центре «Кунлик ишчилар маркази», располо-

женном в махалле Ифтихор Ташкентского района, группой пробации СОБ ОВД района во взаимодействии с отделом Бюро принудительного исполнения была организована ярмарка вакансий. Информацию о рабочих местах здесь представили свыше 20 предприятий, специализирующихся на произ-



водстве товаров широкого потребления, кондитерских изделий, фермерские хозяйства, в их числе «Chocotella», «Progum», «Fazo-luxe», «To'xtaniyozota» и др. Отметим, что мероприятие посетили не только лица, входящие в подучетный контингент, но и те, кому вменена уплата алиментов, временно

безработные граждане, а также включенные в «железную», «женскую», «молодежную» тетради. В ходе ярмарки граждане имели возможность получить юридические консультации по вопросам трудового законодательства.

Рафик ЕНИКЕЕВ.
Ташкентская область.

Молодежь — наше будущее

МОТИВИРУЯ НА ДОСТИЖЕНИЕ БЛАГОРОДНЫХ ЦЕЛЕЙ



Когда в школу приходят люди в форме, ученики точно знают: состоится что-то важное, значимое для каждого.

Сотрудники подразделений ОВД города Алмалыка принимают непосредственное участие в воспитательной работе, осуществляемой в образовательных учреждениях. Вместе с педагогами они ведут деятельность, направленную на раннее предупреждение правонарушений, формирование у ребят уважения к закону, правам других людей и ответственности перед обществом.


В общеобразовательной школе № 7 недавно прошла очередная встреча с инспектором-психологом по вопросам несовершеннолетних отдела профилактики правонарушений лейтенантом Оминой Мухамеджоновой, следователями старшими лейтенантами Давроном Ёдгоровым, Шухратом Кучкоровым и лейтенантом Аюбоном Кодировым. В ходе мероприятия состоялся заинтересованный диалог на тему «Преступление

не остается безнаказанным». Сотрудники на конкретных примерах разъяснили учащимся последствия необдуманных поступков, пояснили, какие угрозы несут деструктивные идеи экстремизма и терроризма, распространяемые в социальных сетях.

В школе № 18 со старшеклассницами встретилась старший инспектор по вопросам женщин подполковник Гулноза Сабриева. Тема беседы — «Знаете ли вы свои права и обязанности?» Девушки получили исчерпывающие ответы на многочисленные вопросы. Было подчеркнуто, что в нашей стране уделяется особое внимание всесторонней поддержке женщин и девушек, создаются необходимые условия для реализации ими своего потенциала.


Такого рода встречи и беседы вызывают у школьников неподдельный интерес, укрепляют в их сознании чувство ответственности, мотивируют на достижение благородных целей.

Радик ТУМΠΑРОВ,
корреспондент «На посту».
Ташкентская область.



Одним из направлений работы сотрудников органов внутренних дел является поиск лиц, пропавших без вести.

Так, в г. Ташкенте за 2022 год 662 человека были объявлены в розыск. Среди них люди, имеющие проблемы со здоровьем, — 56 %; лица, находящиеся под воздействием психотропных средств, — 17 %; женщины легкого поведения — 8 %, те, кто ушел из дома из-за семейных разногласий, — 5 %; трудно-воспитуемые несовершеннолетние — 14 %.



Самыми распространенными причинами ухода являются нестабильная обстановка в семье, нездоровые отношения между близкими, разногласия между супругами, а также между родителями и детьми.

Подростки чаще всего уходят к друзьям или уезжают к родственникам в регионы.

Чтобы предотвратить подобные ситуации, в первую очередь необходимо обратить внимание на взаимоотношения в семье, искать компромисс, уделять внимание родным.

Сотрудники оперативно-розыскной службы ГУВД г. Ташкента, при содействии граждан и волонтеров прикладывают максимум усилий к поиску лиц, пропавших без вести.

Соб. корр.





Мулоҳаза

ҲАММАСИ АНОМАЛЛАШИБ БОРЯПТИ биз эса амаллаяпмиз

Аномал иссиқ, аномал совуқ, ҳатто ёмғиру чанг бўронлари ҳам аномаллашиб боряпти. Туркияда рўй берган вайронкор zilзилани ҳам, гарчи бугунга қадар ер юзида содир бўлган кучли силкинишлар қанчадан-қанча одамларнинг ҳаётига нуқта қўйган бўлса-да, шундай сифатлаш ўринлидир балки. Нафсиламрини айтганда, бу шунчаки юз бермаяпти. Балки табиатнинг гултожи бўлган одамзод ҳам унинг бир бўлаги эканини, улар ўртасидаги муносабат тоза, покиза аъмоллар устига қурилган бўлиши лозимлигини яна бир бор бизга англатяпти.

Шу ўринда ҳақли савол туғилади: кишилиқ жамиятининг издан чиқишига сабаб бўлаётган бу ҳодисалар фонида табиат инсониятдан ўзига нисбатан бефарқлик ва шафқатсизларча муносабат ёки ундаги табиийликка етказилаётган зиён учун ўч олмаяптимики?! Нега бундан тўғри хулоса чиқармаяпмиз? Эндиликда инсоният олдида турган муҳим вазифа атроф-муҳитга нисбатан муносабатни ўзгартириш орқали табиийликни сақлаш ва қутилгану қутилмаган табиий офатларга тайёргарлик кўриш эмасми? Энг ёмони, кўрганларимиз, кузатганларимиз, минг афсуски, аҳволнинг яшиланиши, турли хавф-хатарларни камайтириш учун эмас, балки вазиятни янада чигаллаштиришга ҳисса бўлиб қўшилмаяптимикин, деган хавотир уйғотади.

НУРАЁТГАН КЎЧАЛАР

Узоққа бормасдан, оёғимиз остидаги цемент йўллардан бошлайлик. Бир-икки йил аввал маҳалламиздаги кўп қаватли уйлар орасидаги асфальт йўллар бузилиб, ўрнига цемент йўлакчалар, чиройли рангдор тўсиқлар билан ажратилган пиёдалар йўлаклари қилинди. Очиғи, уч-тўрт кун шағал, кум, чанг-тўзон оралаб юрсак-да, бежирим йўлаклар тайёр бўлганда, кўзларимиз қувонгани рост. Бироқ бугун уларни бир бориб кўринг! Йўл бўлганига пушаймон еб, оёғимиз остида уваланиб ётибди. Эсиз, шунча меҳнат, кетган қурилиш материалларию сарфланган куч, ҳавога совурилган вақт, дейишингиз тайин.

Айтганча, ҳадемай ёз келади. Оёғимиз остида нураб, кум-шағалга айланган йўллардан чанг-тўзон кўтарилиши ва бу аллергия

касалликлар кўзғатиши мумкин. Бу беписандликлар бир пайтлар яшил шаҳар бўлган бошкентимизнинг эндиликда чангу тўзон маконига айланиб бораётганига «муносиб» ҳисса бўлиб қўшилмаслигига ким кафолат беради?!

Бу борада яна бир аччиқ ҳақиқат. Таъмирланганига унча кўп бўлмаган катта йўллардаги катта-кичик чуқурларга бир боқинг. Чекка вилоятларнинг туман-қишлоқларини қўя турайлик, ҳатто пойтахтда ҳам чуқурлар шахмат тахтасидек кўришни олган кўчалар бор. Уларда автоуловларнинг ҳаракати худди шахмат доналарининг сурилишини эслатади. Ҳайдовчилар битта чуқурдан қочиб, иккинчисига тушганида, асаб билан «машинанинг ичи тўкилиб кетадиган бўлди-да», дея ғудраниб қўйишининг ўзи алоҳида мавзу. Бундай йўллардан ҳаракатланган машинанинг тез таъмирталаб бўлиши, усталарга ҳам иш кўпайгандан-кўпайиши эса яна битта мавзу. Қолаверса, йўл-транспорт ҳодисаларига оид рақамларни таҳлил этадиган бўлсак, айнан носоз йўлларнинг ҳам бунда яхшигина улуши борлигига нима дейсиз?

ИМОРАТНИНГ БИТТА ҒИШТИ ОМОНАТ БЎЛСА...

Сўнгги пайтларда ижтимоий тармоқларда ноқонуний қурилатган уй-жойлар, айниқса, қурилиш ишлари талаб даражасида олиб борилмагани, пойдеворидан тортиб, шифтида ҳам ёриқлар пайдо бўлган иморатлар билан боғлиқ турли лавҳаларга кўзимиз тушаёт-

гани рост. «Боғчамиз янги қурилган, аммо ҳалитдан сувоқлари кўчиб тушяпти», «Янги қурилган замонавий уй олгандик, қайтадан таъмирлатдик» қабилидаги гап-сўзларни ҳам кўп эшитамиз. Муҳокамалар авжига чиққандан чиқиб, одамларда «Бундай уйда яшаш хавфли», деган хавотир, ҳадик, қурувчиларга нисбатан ишончсизлик аллақачон шаклланиб улгурди.

Гарчанд, қурувчилардан тортиб, вазирлик масъулларигача, бу борадаги айбларини юмалоқлаб бир-бирларига отишдан чарчашмаётган бўлишса-да, ёмғирдан кейин потирлаб чиққан қўзиқориндек ҳали у ерда, ҳали бу ерда бўй чўзаётган биноларимизнинг сифати яшиланиб қолаётгани йўқ. Эҳтимол, ростдан ҳам уларда ҳеч қандай айб йўқдир. Балки ҳаммасига ўзлари бошлаган ўйинга цемент қўшмай, уни яккалатиб қўйган кум билан шағал айбдордир. Балки барчасига ўз ҳақ-ҳуқуқини, қурилишдаги

экиш нафақат шу ҳудуд аҳолиси, балки неча минглаб инсонларнинг тақдирини ўйлаб қилинган эзгу иш эканлигини ҳам айтиб ўтиш керак. Бироқ орамизда «кўчат экдингми, экдим» қабилида иш тутиб, ниҳол ўрнига илдизсиз новдани қадаб санокқа ўтказганлар ҳам бўлди. Ёки бўлмаса, пойтахтимизда барқ урган дарахтларга қирон келтириш билан боғлиқ бир неча ҳолатлар ҳам кенг жамоатчиликнинг норозилигига учрагани бор гап.

Ота-боболаримиз дарахт экиш, боғ яратишдек хайрли амаллар пайида бўлган. Хўш, биз-чи? Орамиздаги айрим кимсалар биргина ҳаракати билан борини яксон қилиб, яратишга келганда эса кўзбўямачиликка жазм этаётганини қандай изоҳлаш мумкин? Шундай кимсалар ўзини табиатнинг бир зарраси эканлигини ҳис этса, бундай нохуш ҳолатлар юз бермаган, яшил макон доимо биз билан бирга бўларди, аслида.

ХУЛОСА ЎРНИДА

Туркияда юз берган zilзила мамлакат халқининг бошига тушган катта синов бўлди. Турк миллатининг дарди дунё дардига айланди. Аммо вайронкор zilзила оқибатлари дилини ўртаган маҳал унинг марказларидан бири Ҳатай вилояти Эрзин шаҳрида биронта ҳам бино қуламагани, вайронагарчилик бўлмаган ягона ҳудуд эканлиги ва ушбу шаҳарнинг ёш ҳокими Оккеш Элмасўғлуни: «Мен ҳатто битта бинонинг ноқонуний қурилишига ҳам рухсат бермадим. Улар мендан ғазабланишди, танқид қилишди ва қуйидаги сўзлар билан кўрқитишди: «Сиз ўзингизни бу мамлакатда ягона ҳалол инсонман, деб ўйлайсизми? Лекин ҳозир виждоним безовта қилмаяпти», деган сўзлари аччиқ бир ҳақиқатнинг тан олинишига етарли бўлди, назаримизда.

Сирасини айтганда, «Мендан кетгунча, эгасига етгунча» мақолининг бағрига сингиб кетган чала ишлар, кўзбўямачиликларнинг ижрочиси ҳам, уларнинг оқибатидан азият чекувчи жабрдийда ҳам ўзимиз эканлигимизни асло унутмаслигимиз зарур. Бу борада Сардоба сув омбори воқеалари бизга сабоқ бўлишга етарли эканлигини ҳам тан олишимиз керак. Қолаверса, юқоридаги очиқ ва аччиқ таъкидларимиз билан кимнидир айблаш ёки сўзтарсаки тушириш ниятимиз йўқ. Фақат қўл учиди, шунчаки миқдор учун ишлашдан сифат ўзгаришига ўтиш вақти келмадимикин. Бутун борлиқ аномаллашиб бораётган, унинг акс таъсирлари тобора қулоқ ёяётган бир паллада биз амаллаштиришдан сақланайлик, демоқчимиз, холос.

Бернора СОДИҚОВА,
полковник,
Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
«Postda» мухбири.



ўрнини талаб қила олмаган цемент айбдордир.

Булар аччиқ киноялар эмас. Балки куюнаверганидан зардобга тўлиб кетган юраклар нидосидир. Зеро, бу бинолар бизнинг эҳтиёжимиз учун қурилади, яъни бизга хизмат қилади. Энг ачинарлиси, шу боғча, мактабларда фарзандларимиз таълим-тарбия олади, замонавий уйларда эса сизу биз яшаймиз. Бугун замонавий, дея бонг уриб бунёд этилаётган иморатга қўйилган битта омонат ғиштининг талафотини ким тортади? Ундан жабр кўрадиган яна ўзимиз эмасми?!

БИРНИ КЕССАНГ, ЎННИ ЭК

Давлатимиз раҳбарининг ташаббуси билан «Яшил макон» умуммиллий лойиҳаси юртимиз бўйлаб ўтказиб келинмоқда. Бу айни дамда ишлаб чиқариш корхоналарининг атроф-муҳитга салбий таъсирини камайтириш ва экологияни асл ҳолида сақлаш, инсон саломатлигига ташқи таъсирларни камайтиришдек эзгу мақсад йўлида ниҳоятда зарур, ўз ўрнида қабул қилинган лойиҳадир. Ва буни кечиктириб бўлмаслиги ҳам айни ҳақиқат.

Шу ўринда Орол денгизининг суви қуриган майдонига саксовул, қандим, қорабуроқ каби чўл ўсимликлари уруғ ва кўчатларини





Соҳадан чиққан маҳалла раиси



Миннатдорлик

ИККИ ЖАБҲАДА ҲАМ БИРДЕК ФАОЛ

Бир неча йиллар ички ишлар органларида фаолият юритиб, пенсияга чиққан Абдумавлон Абдуқодиров пойтахтимизнинг Яшнобод туманидаги Махмур номли маҳаллага раислик қилади. Тиниб-тинчимас бу инсон бир пайтнинг ўзида туман ИИОФМБ бошлигининг маслаҳатчиси вазифасида ҳам фаолият юритиб келмоқда.



Хизмат фаолиятини 1989 йилда бошлаган ходим, кейинчалик турли лавозимларда эл-юрт осойишталиги учун хизмат қилди. ИИВ Қоровул қўшинлари, ИИВ ЖТСББ бўлим бошлиғи ҳамда Яшнобод тумани ИИОФМБ бошлиғи ўринбосари сифатида самарали хизмат қилган ходим бугунги кунда билими ва тажрибаси билан шахсий таркибга, раҳбариятга ҳамда ёш ходимларга қўлидан келганча ёрдам қўлини чўзиб келмоқда. Бундан ташқари, фахрийлар кенгаши билан ҳамкорликда пенсиядаги ва ногиронлиги бўлган фахрийларнинг ҳолидан хабар олишда фаол иштирок этмоқда.

Қаҳрамонимиз қарийб 7 йилдан буён раислик қилаётган маҳаллада 3000 нафарга яқин аҳоли истиқомат қилади. Оқсоқол доимий ёрдамчилари ва ҳаммаслаклар – профилактика инспектори, лейтенант Нодир Шукуров, оила, хотин қизлар ва ижтимоий-маънавий масалалар бўйича раис ўринбосари Заҳро Аҳмедова, ҳоким ёрдамчиси Мурод Шамуратов, Ёшлар етакчиси Садоқат Жўрабоевалар билан биргаликда ҳудуд ободлиги ва осойишталиги учун бор кучларини сафарбар қилишмоқда.

– Омадим бор, тажрибали, узоқ йиллар ички ишлар органларида

фаолият юритган фидойи инсон ишлаётган маҳаллада профилактика инспекториман, – дейди лейтенант Н. Шукуров. – Устоздан ҳамда яқинда пенсияга кузатилган профилактика катта инспектори, подполковник Ғофур Толлиевдан ҳаётини ҳамда фаолиятимизга оид кўп нарсаларни ўргандим. Абдумавлон аканинг оталарча меҳри менга янада куч ва ғайрат бағишлайди. Шунинг учун ҳам, хизматнинг қийинчиликлари сезилмайди.

Ҳамкорликда олиб борилаётган ишлар натижаси ўлароқ, жорий йилнинг ўтган даврида маҳаллада бирорта ҳам жиноят юз бермади.

Маҳаллада Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси Фёдор Федин истиқомат қилади. Абдумавлон ака унинг ҳолидан ҳам хабардор бўлиб туради. Ўтган йили 9 май – Хотира ва қадрлаш куни байрамида Президентимиз Фёдор Федин хонадонига ташриф буюриб, отахоннинг ҳолидан хабар олган эди. Отахон 97 ёшни қаршилаётган бўлса-да, ҳали тетик ва бардам.

Аномал совуқ даврида маҳалла ҳудудида жойлашган трансформатор катта кучлиниш таъсирида ёниб кетиб, яроқсиз ҳолга келиб қолди. Маҳалла раиси туман электр тармоқлари идораси мутасаддила-

ри билан ҳамкорликда тезда янги трансформатор ўрнатилишида бош-қош бўлди. Аммо бу масала тўлалигича ҳал этилди дегани эмас. Чунки аҳоли сонининг ўсиб бориши, тадбиркорлик ва ижтимоий объектларнинг кўпайишини инobatга олсак, қайта тикланувчи энергияга эҳтиёж бор. Шунинг учун ҳам яқинда мамлакатимиз раҳбарининг тегишли қарори билан аҳолига қуёш панеллари орқали ишлаб чиқариладиган электр энергияси учун субсидия берилиши белгилаб берилган эди. Шу мақсадда маҳалланинг Мажнунтол кўчаси 133-уйда яшовчи Соҳиб Акрамовнинг мурожаатига асосан, унга субсидия ажратилдиган бўлди. Уйининг томига 50 кв.м майдонга қуёш панели ўрнатилиши режалаштирилди.

Қаҳрамонимиз йўлини давом эттираётган ўғли, подполковник Жавлон Абдуқодиров Яшнобод тумани ИИОФМБ 4-сонли ИИБ бошлигининг ўринбосари лавозимида хизмат қилмоқда. Ҳали-ҳамон икки жабҳада фидойилик кўрсатаётган, ёшларча шижоатга эга юрт фарзанди учун бундан ортиқ бахт бўлмаса керак?!

Сапар СОБИРОВ,
«Postda» мухбири.

Абу КЕНЖАЕВ олган суратлар.
Тошкент шаҳри.



КАСБИНГИЗДАН БАРАКА ТОПИНГ!

Ўша куни ҳар доимгидек эрталаб ишга отландим. Ўзим ишлаётган оилавий поликлиникага етиб келиб, кийимларимни алмаштириб, чўнтагимдаги «Redmi Note 9» русумли телефон аппарати йўқлигини сезиб қолдим. Унутиб қолдиргандирман, деган хаёлда дарҳол уйга қўнғироқ қилдим. Афсуски, топишолмади. Хуллас, фарзандларим совға қилган ўша телефон йўқолди.

Ҳамкасбларим «Ички ишлар бўлимига мурожаат қилинг, телефонингизни топишда ёрдам беришади», дейишди. Мен уларга телефонимни ўғирлатмаганимни, аксинча, эҳтиётсизлигим туфайли йўқотганимни, бундай ҳолатда уларга мурожаат қилиш тўғри бўлмаслигини айтдим. Лекин ички ишлар органлари ходимлари бунга ўхшаш кўплаб масалаларни ижобий ҳал қилишганини таъкидлаб, ҳоли-жонимга қўйишмади. Шу сабабли Тупроққалъа тумани ИИБга бориб, мурожаат қилдим. Ўзини капитан Азизбек Турдиев деб таништирган ходим мени хушмуомалалик билан қарши олди ва хизмат хонасига бошлади. Бир пиёла чой устида эҳтиётсизлигим оқибатида телефонимни йўқотганимни гапириб бердим. Сўзларимни диққат билан тинглаган капитан «Хавотир олманг, телефонингиз албатта топилади. Биз ҳозироқ суриштирув ишларини бошлаймиз», дея менга таскин берди.

Эртаси куни уйимизга капитан Азизбек Турдиев келди ва эски қадрдонлардай ҳолаҳвол сўрашди. Сўнгга чўнтагидан йўқолган телефонимни олиб, менга узатди. «Мана, телефонингиз. Уни катта йўл бўйидан топишибди», деди. Жуда севиндим.

Туман ИИБ Тезкор қидирув хизмати тезкор вакили, капитан Азизбек Турдиевдек халқ ташвиши билан яшаётган шундай фидойи йигитларимиз доим омон бўлишсин. Илойим, касбингиздан барака топинг!

Аҳмаджон РАЖАБОВ,
шифокор.

Хоразм вилояти.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

Женщины в погонах

ВОПРЕКИ ОБСТОЯТЕЛЬСТВАМ

Старший инспектор-психолог по вопросам несовершеннолетних ОПП УКД ОВД Юнусабадского района столицы подполковник Гулжахан Заримова считает, что залогом успешной работы в первую очередь являются терпение и умение общаться с подростками.

За 17 лет службы случилось разное, временами было сложно, но Гулжахан Женгисовна ни разу не пожалела, что выбрала эту профессию.

Ее первый наставник – заместитель начальника УКД ОВД Юнусабадского района подполковник Акмаль Бахрамов учил терпению, внимательному отношению к каждому подопечному, видеть в трудных подростках то, что другие не замечают, работать не ради галочки, а на результат.

Мама героини очерка, Даметкен Айманова, и отец, Женгис Заримов, занимались предпринимательством, но дочь не захотела

продолжить семейный бизнес. Ее родственники служили в органах внутренних дел, и она решила продолжить эту линию. По совету отца, Гулжахан поступила в Академию МВД, которую успешно окончила.

В подразделении вместе с ней работают 15 инспекторов-психологов, за которыми закреплены 44 школы, 64 махалли, 6 лицеев и колледжей. Они обходят образовательные учреждения, проводят профилактическую работу с учениками старших классов о вреде наркотиков и их губительном влиянии на организм, демонстрируют поучительные видеоролики о судьбе подростков, по-



павших под влияние плохой компании. Проблема во всех семьях ее подопечных одинаковая – нет диалога, каждый занят своими делами, но инспектору-психологу дети рассказывают о наблевшем.

С начала этого года 10 несовершеннолетних постав-

лены на профилактический учет в УКД ОВД Юнусабадского района. Многие из них сбежали из дома, совершали правонарушения.

– Стараюсь найти с ними общий язык, – говорит подполковник Гулжахан Заримова. – Даже если уйдет целый день, все равно узнаю, что

тревожит подростка, и постараюсь помочь. Дети бывают и агрессивные, чтобы работать с ними, нужно завоевать их доверие и уважение.

В настоящее время в школах выделены кабинеты для инспекторов-психологов. В 7.30 утра они уже на посту. Перед уроками, дабы не допустить чрезвычайных происшествий, проверяют сумки на наличие колюще-режущих предметов, в случае нарушения распорядка предупреждают родителей, ставят в известность руководство школы.

Гулжахан Женгисовна стремится к тому, чтобы подростки не потеряли доверие к взрослым, надежду на лучшее, не совершили ошибку на пути своего становления. Это – ее главная задача. С ней она успешно справляется.

Бибигуль МУРТАЗАЕВА.

■ Хорезмская область.

ЗНАНИЯ И ОПЫТ

Курсанты 3-го курса Академии МВД Республики Узбекистан продолжают квалификационную практику в подразделениях УВД Хорезмской области.

Уже несколько лет курсанты проходят практику по месту их дальнейшей службы. На основании приказа руководства областного УВД, за каждым закрепляется опытный наставник. Курсанты стараются образцово выполнять все поручения. Каждые десять дней руководители проводят анализ промежуточных результатов и оказывают практическую помощь.

– Прохожу практику в отделе профилактики правонарушений УКД ОВД города Ургенча, – рассказывает курсантка Донохон Жуманиязова. – Внимательно изучаю служебные обязанности инспектора профилактики, стараюсь принимать непосредственное участие в мероприятиях, проводимых в рамках дня профилактики. Знания и опыт, которые мы получаем во время практики, пригодятся в нашей будущей служебной деятельности.

Ход практики контролируется руководством областного УВД и опытными педагогами Академии МВД.

Худойберган ЖАББОРОВ,
корреспондент «Postda».
Фото Саъдуллы АБДУЛЛАЕВА.



На снимке: старший инспектор по вопросам женщин ОПП УКД ОВД города Ургенча старший лейтенант Насиба Абдуллаева с курсанткой Донохон Жуманиязовой.



Грани мастерства

ЛЮБИТЬ ПРОФЕССИЮ СЕРДЦЕМ И ДУШОЙ

Уже более 37 лет трудится в Центральной поликлинике МВД Республики Узбекистан старшая медсестра хирургического отделения Саодатхон Юсупова. Пришла она в поликлинику семнадцатилетней девушкой и теперь, по прошествии многих лет, вспоминает, как это было...

– По окончании столичного медицинского техникума, в 1987 году, меня направили в Центральную поликлинику МВД Узбекистана, – рассказывает Саодатхон Абдусаматовна. – У меня сложились приятные впечатления о коллективе. Старшие коллеги, имеющие за плечами большой профессиональный опыт, помогли освоиться, избежать досадных ошибок. Первое время работала в регистратуре, после перешла в хирургическое отделение. Хочу сказать, что мне очень помогла наставница, Мунира Ходжаева. Внимательная, чуткая и доброжелательная Мунира опа многому научила, была всегда рядом. И сегодня, будучи на заслуженном отдыхе, она продолжает плодотворно трудиться в поликлинике, помогает и словом, и делом. Мне доводилось работать в операционном блоке и перевязочной. Хочу сказать, что хирургия – сложная и многогранная наука, где необходимо иметь специальные знания, навыки. Тем более что деятельность наша связа-



на с охраной здоровья сотрудников органов внутренних дел, членов их семей и ветеранов ОВД. С годами лишь убеждалась в том, что сделала правильный выбор, ведь блюстители правопорядка стоят на страже мира и спокойствия народа.

Сегодня С. Юсупова сама является наставницей медицинских сестер, вставших в ряды подразделения, щедро делится с молодежью накопленным профессиональным опытом, помогает во всем, передавая эстафету поколений.

– Хочу сказать, что свою профессию нужно любить искренне, сердцем и душой, – говорит в завершение беседы Саодатхон Юсупова. – Это, наверное, и есть ключик к счастью, ведь, когда ты любишь профессию, то приносишь пользу обществу. А это очень важно – быть полезным людям!

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент «На посту».



QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

ICHKI ISHLAR ORGANLARI
FAOLIYATIDA INSON HUQUQLARI
SOHASIDAGI TA'LIMNING AHAMIYATI

Yangi O'zbekistonning ichki ishlar organlari ham takomillashib bormoqda. Yurtboshimiz «Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi», degan edilar. Bunday yuksak e'tirof bizlarni inson huquqlarini himoya qilishda qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida yanada fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi.



Inson huquqlarini faqat shu yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarni tarqatish orqali samarali ta'minlash mumkin. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim barcha insonlarni huquqlarini himoya qilishga undaydigan qadriyatlar, e'tiqod va munosabatlarni ilgari suradi. Bu har bir shaxsning har qanday jamiyatda inson huquqlarini amalda bo'lishidagi umumiy mas'uliyatini oshiradi.

Shuning uchun ichki ishlar organlarida inson huquqlari sohasida ta'limni yangi bosqichga ko'tarish, bu borada boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish zarur. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir.

Soha xodimlarini xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalashda kasbiy pedagogika, kasbiy psixologiya, ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar muhim o'rin tutadi. Xodimlarni ta'lim orqali tarbiyalash, ularni axloq-odob, nafosat va pedagogika qonunlari asosida inson huquqlarini va erkinliklarini himoya qilish, xalqqa, ona Vatanga, o'z burchiga sadoqatli qilib tarbiyalash, ularning axloqiy, pedagogik va estetik madaniyatini shakllantirish ishlarini tashkil qilish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga asosan, 2023–2024-o'quv yilidan boshlab professional va oliy ta'lim tizimida «Inson huquqlari», «Ayollar huquqlari»,

«Bola huquqlari» bo'yicha tegishli o'quv va maxsus kurslar joriy etiladi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari, ayollar huquqlari, bola huquqlari va migrantlar huquqlari yo'nalishlarida faoliyati mazkur shaxslar bilan bevosita bog'liq bo'lgan tashkilotlarda o'quv kurslari va seminar-treninglar tashkillashtiriladi.

2023-yil 1-martdan boshlab tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun qiynoqqa solishga qarshi kurashish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari doimiy ravishda tashkil etiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, qiynoqqa solish bilan



bog'liq vaziyatlarning oldini olish ichki ishlar organlarining ustuvor vazifasi sifatida so'zsiz tan olinishi kerak. Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlab berish bo'yicha xodimlar xalqaro standartlar va milliy qonunchilikdagi qoidalar mazmunini o'zlashtirib, tegishli ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim.

Mazkur qaror asosida ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy

savodxonlik darajasini oshirish va baholash tartibi o'rnatiladi. Ichki ishlar organlari xodimlari uchun inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari tashkil qilinadi.

Ilmiy izlanishlarni samarali olib boshlash, ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari inson huquqlari sohasida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek, ushbu yo'nalishda fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida «Inson huquqlari» (yuridik fanlar, sotsiologiya fanlari) ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti tashkil qilinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ichki ishlar organlari oldida fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, qiynoqqa, ma'naviy, ruhiy, jismoniy zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslikni ta'minlashda mas'uliyatni kuchaytirish borasida bir qator vazifalarni sanab o'tish mumkin.


Birinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish ichki ishlar organlari faoliyatida muhim yo'nalish hisoblanadi. Buni nafaqat tizim vakillari, balki aholining barcha qatlamlariga yetkazish zarur. Bu borada ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoat tuzilmalari imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, qiynoqqa yo'l qo'ymaslik yo'nalishida xalqaro tashkilotlar ko'magida onlayn shaklida seminar-treninglar doirasida keng tajriba almashish kerak.

Uchinchidan, ichki ishlar organlari xodimlarining bu boradagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirish maqsadida ularga qiynoqqa yo'l qo'ymaslik bo'yicha milliy qonunchilik va xalqaro standartlarni o'rgatish uchun ushbu mavzuda o'quv kurslari va fakultativ mashg'ulotlar tashkil etish lozim.

Zero, ichki ishlar organlari xodimlarini «Inson qadri uchun» tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakillari etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligiga erishish hozirgi zamonning asosiy talabidir. Qarordan ko'zlangan maqsadlardan biri ham aynan shundan iborat.

Alimjon MATCHANOV,
IIV Akademiyasi Tashkiliy-shtab
faoliyati kafedrasini boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor,
polkovnik.

ARG'AMCHIGA
QIL QUVVAT

Arg'amchi (arqon) nuqul jundan qilinsa, mustahkam bo'lmaydi, salga uzilib ketadi. Shuning uchun junga ozroq qil (otning yoli yoki dumidan) aralashtirib eshadilar. Shu ozgina qil ham arg'amchini pishiq va baquvvat qiladi. Majoziy ma'nosi: «Qiyalib, muhtoj bo'lib turgan odamga ozgina yordamlashib yuborsang, unga ancha quvvat baxsh etgan bo'lasan, u sening shu ozgina yordaming bilan o'zini o'nglab olishi mumkin».

ASILNING XATOSI BO'LMAS,
NOKASNING OTASI BO'LMAS

Majoziy ma'nosi: «Nokas – ya'ni, yomon odam faqat o'zini o'ylaydi, o'zim bo'lay deydi, o'z manfaatini ko'zlaydi, o'zgalarni, oshna-og'aynilarni, hatto otasini ham tanimaydi, siylamaydi, hurmat qilmaydi».

BALAPON BOSHIGA,
TURUMTOY TO'SHIGA

Balapon (bu so'zni «palapon» deb ham talaffuz etadilar) – qushning uchirma bo'lgan jo'jasi. Turumtoy – ov qushlarining eng kichkinasi. Maqolning to'g'ri ma'nosi shuki, hali uchishni yaxshi o'rganmagan balapon uchaman deb harakat qiladi-da, yiqilib tushib, o'z boshiga yetadi. Turumtoy esa o'zining kuchi yetmagan saydga chopib, to'shini oborib urib, o'ziga o'zi shikast yetkazadi yo o'ladi. Majoziy ma'nosi: «O'z kuchidan, holidan ortiqcha narsaga uringan odam o'ziga o'zi ziyon-zahmat yetkazadi».

«BERDI»SINI AYTGUNCHA
BELIMNI BUKMA

Bu maqolning kelib chiqishi shoir Mashrabga nisbat berib aytiladigan bir latifaga bog'liq. Kunlardan bir kun ruhoniylar Mashrabdan: «Isming nima?» deb so'rabdilar. Shunda u «Xudoy...» deb javob bera boshlagan ekan, ruhoniylar shu zahotiyoy uni do'pposlay ketibdilar va qoziga olib borib: «Mana bundan ismini so'rasak, «Xudoy» deb javob berdi. Bu kofir bo'ldi!» deb arz qilibdilar.

Qozi Mashrabni so'roq qilganda, u: «Berdi»sini aytguncha urib o'ldirmoqchi bo'ldilar, mening ismim – Xudoyberdi», degan ekan... Bir gapni oxirigacha tinglamay turib, shoshma-shosharlik bilan hukm chiqaradigan kishilarga nisbatan shu maqolni ishlatadilar.

«Ma'nolar maxzani»
kitobidan olindi.



■ Сурхондарё

ЙЎЛДОШИ БОРНИНГ ҚЎЛДОШИ БОР

...Тергов-тезкор гуруҳи Термиз шаҳри «Юлдуз» маҳалласидаги хонадонлардан бирига отланди. Воқеа жойига вилоят ИИБ ЖТСБ Кинология бўлини маси инструктор-кинологи, сафдор Зухриддин Давронов ҳам «Граф» лақабли хизмат ити билан етиб борди.

Тадбир аввалида томорқада 120 туп гиёҳвандлик ўсимлиги етиштирилаётгани аён бўлди. Тезкор гуруҳ вакиллари уларни шу ернинг ўзида ҳужжатлаштириб олишди. Сўнгра З.Давронов хизмат ити билан бирга хонадон ичкарасини, ҳовли атрофини синчковлик билан қараб чиқа бошлади. Уй ичидаги хоналардан бирида турган ёғоч сандиқ олдида келган «Граф» ўтириб олиб, ишора бера бошлади. Ҳамроҳининг бу ҳаракатини пайқаган сафдор сандиқ ичини кўздан кечириш кераклигини айтди. Сандиқни очишганида 5 та гугурт қутисига жойлаштирилган гиёҳвандлик моддаси борлиги аниқланди.

Сафдор Зухриддин Давронов, мана, 10 йилдирки, ўзига бириктирилган хизмат ити билан гиёҳвандлик моддаларини излаш ва топишда жонбозлик кўрсатиб келмоқда. Албатта, икки ҳамроҳининг узоқ вақт давомида олиб борган машғулоти, машаққатли меҳнати натижасида бугун шундай натижаларга эришилаётир. Ахир, тилсиз жониворни изларни топа оладиган изкувар даражасигача етказиш осон эмас.

– Итга меҳр берсангиз, у сизга қулоқ солади, – дейди сафдор З.Давронов. – Неча йиллардан бери менга ҳамроҳ бўлган «Граф»

билан олиб борилган машғулоти давомида бунга амин бўлдим. Бугун у менинг чин дўстимга айланиб улгурган. Ҳозир у билан бирга қанчадан-қанча жиноятларни «иссиғида» фош этишга эришяпмиз.

Ҳа, кинологликни танлаган сафдор ўз ишини яхши кўради. Вазифасини ҳам шундай иштиёқ билан бажаради. Чунки, унинг таъкидича, касбга бўлган меҳр, иштиёқ ва фидойилик ортидан келган ризқ ҳалол ва баракали бўлади.

Қаҳрамонимиз ҳаётда танти бўлиш, ўзгаларни алдамаслик кераклигини уқтиргани каби ўзи ҳам шу ақидага амал қилиб яшайди. «Ўзгани алдаган, аввало, ўзини алдаган билан баробардир», дейди у. Ҳамкасблари ҳам Зухриддинни айнан ана шу фазилатлари учун ҳурмат қилишади. Қолаверса, тажрибали йўриқчи сифатида Зухриддин Давронов ёш ходимларга биланларини ўргатишдан эринмайди. Яқинда Божхона миллий кинология марказида малакасини ошириб қайтган қаҳрамонимиз айни вақтда ўзига бириктирилган 2 та хизмат итини тарбиялашга киришган.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
«Postda» мухбири.



■ Бухоро

МОХОНЧЎЛДАГИ
ЎҒРИЛИК

«ИССИҚ ИЗИДА» ФОШ ЭТИЛДИ



Жондор туманининг Моҳончўл массивида ўғрилиқ юз берди. Тунда номаълум шахслар фермернинг сув насосини «гум» қилишди. Эрталаб фермер сувчиси билан дала майдонида чилла суви қўйиш мақсадида келса, шу аҳвол. У дарров туман ИИБ Навбатчилик қисмига қўнғироқ қилди. Капитан А.Холов зудлик билан тергов-тезкор гуруҳи аъзоларини воқеа содир бўлган жойга жўнатди.

Ҳодиса жойига етиб келган тергов-тезкор гуруҳи аъзолари ўз йўналиши бўйича ишни бошлашди. Терговчи, катта лейтенант Беҳруз Тошев аввал фермернинг кўрсатмасига эътибор қаратди. Фермер икки кун олдин хўжалик ерларига сув олмоқчи бўлган. Аммо сувчисининг маъракаси борлиги боис сувни кейинроқ олишга келишган экан. Ўшанда насос жойида бўлиб, панжараси ҳам бузилмаганлигини билдирди. Сўнг терговчи ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириб, ишга алоқадор ашёвий далилларни ҳужжатлаштириб олди.

– Шерали ака, – деди у жиноят қидирув вакилига юзланиб, – сиз шогирдингиз билан воқеага гувоҳ бўлган шахсларнинг доирасини аниқлаб, тезкор суриштирувни бошланг. Биз эксперт ва кинолог билан жиноятчилар томонидан қолдирилган изларни олишга ҳаракат қиламиз.

Туман ИИБ эксперт-криминалисти, лейтенант А.Раҳмонов

ҳамда кинолог, сафдор А.Қиличов хизмат ити билан тайинли из олишолмади. Чунки воқеа содир бўлгандан кейин бу ерда ҳудуд атрофидаги итлар изғиб изларни деярли йўқ қилибди. Шундай бўлса ҳам, катта лейтенант Б.Тошев ҳудудда кучайтирилган назорат тартибини ўрнатди. Тезкор вакиллар олиб борган суриштирув ишлари натижасида шу атрофда бир кун олдин бегона кишилар юришгани маълум бўлди. Гувоҳларнинг кўрсатмаси асосида гумон қилинувчиларнинг расмлари чизилди ва шу орқали ўғрилар топилди. Насос эса эгасига қайтарилди. Айни пайтда ҳолат юзасидан тергов ҳаракатлари давом этмоқда.

– Мазкур жиноят жамоатчилиқ ҳамда ходимларнинг ҳамкорлиқдаги ҳаракатлари натижасида фош этилди, – дейди туман ИИБ ҳузуридаги тергов гуруҳи терговчиси, катта лейтенант Беҳруз Тошев биз билан суҳбатда. – Ўғрилар уч киши экан. Улар икки кун мобайнида ён атрофни кузатиб, қаровсиз қолдирилган насосни олиб кетиш режасини тузишган. Кейин бирининг «Нива» русумли автомашинаси орқали тунда чўлга келишиб, тақсимланган иш бўйича ўғрилиқни амалга оширган. Бири пойлоқчилик қилган бўлса, қолганлари ўзлари билан олиб келган лом ёрдамида темир панжарани синдириб, насосни машинага ортишган. Бироқ у ўғрилар эҳтиёжига сарф бўлмади, аксинча, жазо олишига сабаб бўлди.

Мирзоқул АҲАДОВ,
«Postda» мухбири.



■ Джизакская область

ВОЗМОЖНОСТИ РАСШИРЯЮТСЯ

Медицинский отдел УВД Джизакской области оснащен самым современным оборудованием, в частности: цифровой рентгенологической аппаратурой для диагностики заболеваний внутренних органов; иммунохемилюминесцентным анализатором CL-900i, позволяющим выявить более 100 заболеваний по анализу крови; гематологическим анализатором, исследующим кровь по более чем 20 показателям; ЛОР-комбайном для диагностики, лечения и проведения малых хирургических операций; ультразвуковым диагностическим оборудованием, четко в цвете и в трех проекциях показывающим внутренние органы; стоматологическим набором AJAKS AJ-18.

Опытные врачи – 10 терапевтов, кардиолог, невролог, офтальмолог, хирург, психиатр, дерматовенеролог, оториноларинголог, стоматолог, рентгенолог, гинеколог, семейные врачи, врачи УЗИ и лаборатории оказывают квалифицированную помощь сотрудникам и членам их семей, ветеранам сферы.

В терапевтическом и неврологическом отделениях госпиталя, рассчитанного на 40 коек, в 2022 году и

за текущий период нынешнего года поправили свое здоровье 1 219 человек. Более 900 пациентам, в числе которых инвалиды I и II групп, члены семей сотрудников, погибших при исполнении служебных обязанностей, ветераны, не имеющие возможности передвигаться, были оказаны медицинские услуги на дому. Для этих целей в распоряжении медперсонала – два санитарных автомобиля «Дамас» и один «Мерседес».

– Мы проводим медицинские осмотры сотрудников один раз в год, а личный состав, применяющий ору-



жие, осматриваем два раза в год, – говорит начальник Медицинского отдела УВД Джизакской области майор Аскар Мелибоев. – Это позволяет выявлять и эффективно лечить заболевания на начальном этапе и в латентном периоде. Кроме этого, в рамках проводимого каждую среду дня здоровья в 2022 году и за прошедший период текущего года состоялось более 700 мероприятий, цель которых

– пропаганда здорового образа жизни, правильного питания и преодоления вредных привычек. Подобные мероприятия охватывают сотрудников областного УВД, отраслевых служб и подразделений. Прорабатывается и вопрос платного сервиса. Заработанные средства тратятся на приобретение медицинского оборудования, лекарств, поощрение врачей и среднего медперсонала.

В деятельности Медицинского отдела ожидается ряд изменений. Так, на территории оздоровительного лагеря УВД Джизакской области, расположенного в Зааминском районе, предусмотрено строительство межобластного реабилитационного центра, рассчитанного на 60 коек, с отделениями реабилитации и пульмонологии, для лечения больных с заболеваниями органов дыхания, неврологии, сердца и сосудов. А на территории медотдела планируется построить 4-этажный корпус, в котором будут располагаться лабораторный комплекс, бактериологическая лаборатория, диагностический центр, кабинет дезактивации медицинских изделий, военно-врачебная комиссия и зал духовности и просвещения.

**Алижон
АБДУСАТТОРОВ,**
корреспондент
«Postda».



Месячник дисциплины



Согласно приказу командующего Караульными войсками, в связи с объявлением с 10 февраля по 10 марта 2023 г. Месячника дисциплины в войсковой части № 7533 Караульных войск МВД Республики Узбекистан с личным составом проводится ряд профилактических мероприятий, направленных на предупреждение правонарушений, профессиональной этики.

В частности, в совещании дальнейшего укрепления дисциплины участвовали заместитель командующего Караульными войсками полковник Д. Ашуров и следователь Каршинской военной прокуратуры Т. Мардонов. В ходе мероприятия обсуждались нарушения порядка несения воинской службы, объяснялась неотвратимость ответственности за любое незаконное деяние.

Соб. корр.

В войсковой части № 7534 Караульных войск МВД Республики Узбекистан, расположенной в городе Ташкенте, проходят мероприятия под девизом «Крепкая воинская дисциплина – залог отличной службы военнослужащего».

Так, недавно состоялось профилактическое мероприятие на тему «Правила дорожного движения сохраняют жизнь», в ходе которого защитники Родины повысили уровень знаний в данной сфере.

Абдухамид ОЛЛОЕРОВ,
младший сержант.

* * *



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

YUGURISH – SOG'LOM TURMUSH GAROVI

Jamiyatimizning har tomonlama rivoj topishi hamda bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning nechog'li muvaffaqiyatli bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodning barkamol, jismoniy sog'lom va ma'nan yuksak darajada shakllanishiga bevosita bog'liqdir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, inson umrining 50—52 foizi sog'lom turmush tarziga, 8—10 foizi tibbiyotga, 20 foizi irsiyatga va yana 20 foizi ekologik omillarga bog'liq ekan. Shunday ekan, har birimiz salomatlikni asrab-avaylashimiz va uni yanada mustahkamlashimiz lozim, bular, shubhasiz, uzoq umr ko'rishning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Har bir shaxs nafaqat o'zi, balki boshqalar uchun ham «sog'lom turmush tarzi»ni yaratish lozimligini anglab yetishi, salomatligini saqlashi, mustahkamlashi va uzoq umr ko'rish uchun shaxsan intilishi zarur.

Aholining jismonan sog'lom bo'lishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish yaxlit organizmning ichki hamda tashqi muhit va kundalik hayotda yuz beradigan o'zgarishlarga keng miqyosda moslashish xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Vaholanki, kam harakatlilik sharoitida voyaga yetgan bolalar va o'smirlar organizmi hamda a'zolarining moslashuv

Inson harakati o'z taomiliga ko'ra barcha dorivor moddalarning o'rnini bosishi mumkin, biroq barcha dorivor moddalar harakat o'rnini bosa olmaydi.

Ibn SINO.



xususiyati talab darajasida bo'lmaydi. Shu bois bunday organizmlar tashqi va ichki muhit faoliyatining keskin o'zgarishlariga yetarli darajada moslasha olmaydi.

Mushaklarning faol harakati inson organizmining rivojlanish bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson biologiyasi va fiziologiyasida mushak faoliyatining ahamiyati muhimligi tufayli uni hayotning asosiy belgisi sifatida baholash o'rinli, albatta. Aynan mushaklar faolligi sababli qon aylanish, nafas olish, jigar va buyrakning qondan asab hujayralariga bosim o'tkazuvchi zararli moddalarni chiqarishdagi faoliyati yaxshilanadi. Shunday qilib, yuqori darajadagi ishchanlik qobiliyati, ijodiy faollik, jismoniy yetuk-

lik va uzoq umr ko'rishning eng to'g'ri hamda samarali yo'li bu – jismoniy faollik hisoblanadi.

Jismoniy faollik deganda, odatda, birinchi navbatda, faollik bilan harakatda bo'lish, yurish va yugurishni nazarda tutamiz. Yugurish bilan har kim, har qachon va har qanday sharoitda shug'ullanish imkoniyati mavjud. Kunlik mashqlar muntazam ravishda amalga oshirilsagina, qon aylanish va muskullar faoliyati yaxshilanadi, barcha a'zolar, bo'g'inlar yumshoq bo'ladi, qon bosimi, yurak faoliyati yaxshilanadi. Shuningdek, mashq qilish jarayonida inson organizmi va muskullarda harorat yuqorilashadi, ular egiluvchan va mayinlikka moyil bo'ladi. Bundan tashqari, yurak tez

urishining oldi olinadi, nafas olish chuqur va tez-tez ro'y beradi, ovqat yaxshi hazm bo'ladi, bu esa uning tez singishi hamda ortiqcha moddalarning organizmdan chiqib ketishiga imkon yaratadi. Shu tariqa, yuqoridagilar asosida qayd etish lozimki, inson yugurish orqaligina sog'lom turmush tarzini qabul qilib, o'z sog'lig'i haqida qayg'urishi va umrini muayyan darajada uzaytirishi uchun imkon tug'diradi.

Agar siz dastlabki kunlardan yugurish orqali faqatgina salomatligingizni mustahkamlashni o'ylay boshlasangiz, keyinchalik esa jussangizni ortiqcha vazndan qutulish, umumiy jismoniy tayyorgarlik holatini yaxshilash, chidamlilik, tezkorlik, pishqlik bilan birga, sportga bo'lgan munosabatingiz butunlay o'zgaradi va tasavvuringizdan tashqari bo'lgan narsalar sizga xayrixoh bo'lib boradi. Muhimi, yugurishga oshnolingiz bois siz tabiatan yengil, kuchga to'lgan, a'lo kayfiyatli, har bir ishini o'ylab, aql bilan bajarishda nafaqat o'zingiz, balki tevarak-atrof, oila, jamoa, do'st-qardonlarni ham o'ylaydigan bo'lasiz va hayotda yangi orzu-umidlar bilan yashagingiz kela-veradi.

Yugurish ko'plab insonlar va har birimiz uchun hayotiy zaruratga aylanamog'i darkor. Buning uchun bir oz hafsala, salgina iroda, bir nafasgina qadam tashlasangiz bas! Shubhasiz, bunga siz qodirsiz, uni albatta uddalaysiz va aslo bu sizga qiyin emas.

Murod TURAYEV,
podpolkovnik.

Что происходит с организмом при резком перепаде температуры



Резкие перепады температуры воздуха, атмосферного давления, геомагнитные бури оказывают нагрузку на сердце, отрицательно воздействуя на здоровье человека.

В случае перепадов температуры сердце получает дополнительную нагрузку из-за необходимости поддержания температуры тела: оно обеспечивает равенство теплопродукции и теплоотдачи. Кровеносные сосуды кожи сокращаются на холоде, в результате чего ее поверхностные слои получают мень-

ше тепловой крови и меньше отдают тепло. При этом увеличивается количество крови, циркулирующей во внутренних органах, что способствует сохранению в них тепла.

Теплопродукция у взрослого человека не меняется при несущественных колебаниях температуры окружающей среды, однако ее резкое повышение ведет к снижению обмена веществ и уменьшению образования тепла. При снижении температуры, напротив, процесс активизируется, и образование тепла возрастает, что является результатом мышечной деятельности.

Перепады температуры воздуха могут спровоцировать как незначительное повышение артериального давления, так и гипертонический криз. У людей с ишемической болезнью сердца возможен приступ стенокардии. Спазм сосудов может спровоцировать головную боль, стать причиной дискомфорта в груди, колющих болей в сердце.

При перепадах температуры вероятен спазм сосудов. Если разница в температурах слишком большая, а организм ослаблен, то повышается вероятность обморока.

Чем опасен?

В организме могут развиваться две противодействующие реакции: холодовой шок, заставляющий сердце биться быстрее, и ответ на него, который замедляет сердцебиение, пытаясь сэкономить кислород. В результате конфликта реакций возникает аритмия.

Можно ли заболеть?

В большинстве случаев острое респираторное заболевание развивается вследствие резких перепадов температуры, угнетающих иммунитет, а организм становится чувствительным к разным микроорганизмам.

Как пережить?

При переохлаждении надо помочь восстановить нормальную температуру тела. Самый простой и безопасный метод – теплые одежда, одеяла, горячий чай.

Не следует менять привычную схему лечения: не отменять те или иные препараты из-за «неважного» самочувствия.

Чем чревато?

Изменение погоды не одинаково сказывается на самочувствии людей: у здорового человека физиологические процессы в организме подстраиваются к условиям окружающей среды, однако у больного приспособительные реакции ослаблены, поэтому отрицательное влияние погоды он ощущает наиболее сильно, что заметно влияет на самочувствие.

Қашқадарё вилояти
ИИБ Фахрийлар кенгаши
истеъфодаги майор Ўроз
Ҳайдаровга ўғли

Азизбекнинг

бевақт вафот этгани муносабати билан ҳамдардлик билдиради.



По маршрутам духовности

7 ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ КАРШИ

Административный центр Кашкадарьинской области – город Карши. Ему свыше 2700 лет.

Об истории топонима упоминал Бабур в своем «Бабурнаме». Карши означает замок или мавзолей. При Амуре Темуре вокруг города была воздвигнута оборонительная стена.

В современном городе переплетаются новое и старое, культовые места соседствуют с жилыми домами и городской инфраструктурой.

1. Мемориальный комплекс Абу Убайда ибн аль-Жаррох. Убайда аль-Жаррох был известным полководцем, политическим деятелем, сподвижником и лекарем



пророка Мухаммада. По легенде, смог вылечить раненого стрелой Пророка. Комплекс был возведен в XV веке, а отреставрирован совсем недавно. На территории мавзолея можно увидеть минарет с фигурами аистов, прозрачный пруд, древние захоронения, артефакты, старую чинару. Со входа к самому комплексу ведет широкая аллея.

2. Мост Амира Темура был сооружен в 1583 году в типичном персидском стиле по инициативе Абдулла-хана II, желавшего построить удобный проход для пешеходов



и торговых караванов – Карши был важным пунктом остановки торговцев. С тех пор это сооружение стало символом города. В нем 122 метра длины, 8 метров ширины, 5 метров высоты над водой и 10 арок.

3. Медресе и мечеть Одина. Первые медресе и мечеть для женщин были возведены в XVI веке на месте разрушен-



ного дворца Кебек-хана. Комплекс был единственным в Центральной Азии. В настоящее время в мечети открыт музей, рассказывающий о богатой истории династии Шейбанидов.

4. Мечеть Кок-Гумбаз. Соборная мечеть в Карши была построена в конце XVI



века. «Голубой купол» впечатляет величием и красотой.

5. Медресе Хужа Абдулазиз. Возведено в 1909 году. В начале XX века являлось популярным учебным заведением, куда



съезжались студенты со всего Бухарского эмирата. С 1975 по 2007 гг. в медресе действовал Кашкадарьинский краеведческий музей.

6. Медресе Куличбоя. Построено в 1914 году. 12 учебных комнат располагаются на первом и втором этажах. Внутри сооружения был проведен ташнов – канализация. Впечатляют прочные стены, выложенные из жженого кирпича. В настоящее время в медресе работает музей.

7. Сардоба – резервуар для сбора воды, был построен в XIV веке. Так как



климат в регионе довольно засушливый, сооружение позволяло собирать дождевую воду. Сардоба действовала до начала XX века.

Подготовил Дадахон ХАСАНОВ,
капитан.

ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ (с 27 февраля по 5 марта)



Овен. Внимательнее относитесь к поступающей информации. Возможно, вы услышите сведения, не соответствующие действительности. Постарайтесь ограничить контакты с малознакомыми людьми, избегайте сплетен и выяснения отношений. На выходных проявите аккуратность при приеме лекарств.



Телец. Воздержитесь от ненужных финансовых расходов, не занимайтесь долгосрочным планированием: возможно изменение внешних обстоятельств, в результате чего придется внести коррективы в текущие планы, особенно это относится к покупке компьютерной техники.



Близнецы. В начале недели не стоит идти на конфликт в тех вопросах, которые не требуют срочного решения. Наберитесь терпения и переждите. Во второй половине периода постарайтесь активно действовать, тогда положительный результат не заставит себя долго ждать.



Рак. Не рекомендуется отправляться в дальние поездки. Если вы уже находитесь в пути, строго следуйте намеченному маршруту. Водителям следует внимательнее следить за дорогой и не допускать нарушений правил.



Лев. Нежелательно предпринимать действия, связанные с риском получения травмы. Можно заниматься урегулированием вопросов, связанных с наследством, обсуждать острые темы со старшими родственниками. Будьте осторожнее при использовании бытовой химии.



Дева. Сдерживайте эмоции и не реагируйте, если вас провоцируют. Даже мелкие бытовые неурядицы могут привести к конфликтным ситуациям. Во второй половине недели вы решите все спорные вопросы в конструктивном русле. Вам могут преподнести приятный сюрприз или подарок.



Весы. Уделяйте больше внимания здоровью, особенно режиму питания и качеству употребляемых продуктов, посидите на легкой диете или хотя бы не пере едайте. Начиная со среды, желательнее планировать выполнение сложных и трудоемких работ. У вас все получится сделать так, как вы хотите.



Скорпион. Следует быть внимательнее и терпимее к близким людям. Не нужно требовать от них больше того, на что они способны. Неумеренные ожидания могут привести к разочарованиям. Это благоприятное время для творческой реализации, осуществления давних замыслов, поездок.



Стрелец. В понедельник и вторник желательно воздержаться от подписания важных документов, связанных с партнерством, семьей и недвижимостью. Вторая половина недели благоприятна для решения материальных вопросов. Поддержку могут оказать родственники.



Козерог. Рекомендуется позаботиться о здоровье. В это время ослабевает иммунитет, вы становитесь более уязвимыми к всевозможным вирусным инфекциям. Переохлаждение может спровоцировать развитие воспалительного процесса. В выходные желательнее выехать за город, на свежий воздух.



Водолей. Внимание будет сосредоточено на решении финансовых вопросов. В начале недели есть риск выйти за рамки бюджета, не покупайте лишнего. Вторая половина, напротив, позволит вам грамотно распорядиться деньгами и совершить удачные покупки. Успешно сложатся дела на работе.



Рыбы. Потенциально конфликтное время, когда личные желания и намерения могут столкнуться с препятствиями со стороны родных людей. Иногда выгоднее переждать ситуацию. В то же время это благоприятный период для реализации планов, путешествий, встреч с друзьями, углубленной учебы.



Mushtariy ilhomi

ONA...



Bu so'zni angladim farzandli bo'lib,
Qo'lga qalam oldim ko'zga yosh to'lib,
Mening baxtim uchun bormoqda so'lib,
Ona, bag'ringizga boshimni qo'yay.

Uning ulashgani muhabbat, mehr,
O'zi ham, so'zi ham, borlig'i sehr,
Dildagi javharim, boshga toj, axir,
Ona, bag'ringizga boshimni qo'yay.

Farzand uchun jonin ayamasi ona,
Kunduz ham, tunda ham boshda parvona,
Hayotda do'stimiz u zot bir dona,
Ona, bag'ringizga boshimni qo'yay.

Mehridan porlaydi uyimda quyosh,
So'z ila davolar ko'zda ko'rsa yosh,
Sharaf – qoshingizda egib turmoq bosh,
Ona, bag'ringizga boshimni qo'yay.

Toshkent shahri.

Gulshan ERGASHEVA.

Sportni sev, sport bilan yasha!

MAYDONDA FAXRIYLAR

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi faxriylar ishlari bo'yicha markaziy kengashi, Futbol assotsiatsiyalari faxriylar kengashi hamda Davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Toshkent shahar kengashi hamkorligida «Mudofaa vazirligi kubogi» futbol musobaqasi o'tkazildi.

Faxriylar o'rtasida kechgan bahslarda Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, DXX, Chegara qo'shinlari, Toshkent shahar prokuraturasi hamda Milliy gvardiya jamoalari o'zaro kuch sinashdi.

Do'stona ruhda kechgan musobaqada Ichki ishlar vazirligining «Posbon» jamoasi munosib ishtirok etdi. Faxriylardan iborat jamoamiz yakuniy

natijalarga ko'ra ikkinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Turnirda, shuningdek, turli nominatsiyalar bo'yicha ham g'oliblar aniqlandi.

– Faxriylar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida o'tkazilgan turnir bizga juda manzur bo'ldi, – deydi turnirda «Eng yaxshi yarim himoyachi» nominatsiyasi g'olibi, ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi kapitan Rustam Almatov. – Sport – salomatligimiz garovi. Ushbu sport bayramida bunga yana bir ishonch hosil qildik.

G'olib va sovrindorlar musobaqa tashkilotchilari tomonidan munosib taqdirlandi.

O'tkir AHMEDOV,
IIV Faxriylar kengashi a'zosi,
iste'fodagi polkovnik.



KEYWORD

Bugun e'tiboringizga havola qilayotganimiz – yangi boshqotirma turi keyword deb ataladi.

Keyword – raqamli topqirlik mashqi bo'lib, unda jumboq so'zlar ta'riflari bayon etilmagan harf va raqamlardan iborat. Bunda har bir harf o'z raqamiga ega bo'ladi.

Bir xildagi raqamli kataklarga bir xil harflarni yozish hamda qolganlarini topish bilan keywordni hal eting. Bunda sizga «otliq» va «o'r-kach» kalit so'zlari yordam beradi.

Tuzuvchi:
Foziljon ORIPOV.

KALIT SO'ZLAR

1	2	3	4	5	*	6	7	8	9	10
O	T	L	I	Q		O	R	K	A	CH
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21
8	25	20			11				2	
25		9	27	26	4	7			13	4
10	6	3			3		8		15	3
	7		2	4	3	23	25	12	1	22
	17		9		9		7		24	9
8	1	3	18	9		18	9	19	1	7
	12		4		1		23		7	20
		16	9	17	22	9		8	1	3
			2		17		24		24	7
		4	23	5	1	7	4	27		18
	8		25		12		9		16	8
17	9	27	12	9		25	17	17	1	12
	8		1		9		21		22	18
	8		22	2	7	9	2	1	22	F
2	25	2			17		7		9	2
4		4	7	17	1	5			23	1
17	1	23			12				12	

Postda
Ha nocty

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik

Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV

kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV

Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Foziljon MAMASHARIPOV

Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV

Ilhom JUMANOV

Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV

Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
20210000600447980001.

Bank kodi 01037.

ATB

«Qishloqqurilishbank»

Sergeli bank

xizmatlari ofisi.

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili:

Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma №V-5416.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50736 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz